

03
S 96


Kitob

MENING ILK ENSIKLOPEDIYAM



12+

DUNYO mo'jizalari





DUNYO MO'JIZALARI

«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPAANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT - 2020

030(100)(075.3)

S-96

Sultonov, Elzod.

Dunyo mo'jizalari [Mening ilk ensiklopediyam turkumidan]: 1-kitob / E. Sultonov. – Toshkent : «Sharq», 2020. – 128 b.

UO'K 030(100)(075.3)

Qadimda kishilarni o'z go'zalligi va salobati bilan lol qilgan san'at asarlari hamda me'moriy obidalarga dunyo mo'jizalari sifatida qaralgan. Dunyo mo'jizalari qatoriga ulkan haykallar va inshootlar – dahmalar, ibodatxonalar, qasrlar kiritilgan. Shu tariqa dunyoning yetti mo'jizasi ro'yxati tuzilgan.

Biz Siz bilan sayyoramizning barcha qit'alari, dengiz va orollari bo'ylab sayohat qilamiz, Yerning qutblariga nazar solamiz.

Aziz o'quvchi, «Mening ilk ensiklopediyam» turkumi ostida chop etilgan mazkur kitoblar bilan tanishar ekansiz, unda ko'plab tarix va geografiyaga oid atamalarga duch kelamiz. Biz imkon qadar ushbu atamalarni kitobimiz sahifalari ostida izohlab, sharxlab boramiz.


ISBN 978-9943-5565-8-4

UO'K 030(100)(075.3)

ISBN 978-9943-5565-8-4

© Elzod Sultonov (tuzuvchi-to'plovchi), 2020

© «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2020



10

MUNDARIJA

Dunyoning rang-barangligi.....5

QADIMGI DUNYONING YETTI MO'JIZASI

Fir'avnlr dahmasi.....	9
Faros mayog'i.....	12
Chaqmoqlar sohibi o'z uyida.....	14
Sahro orasidagi bog'lar.....	16
Mavzolning boqiy shuhrati.....	18
Yoqib yuborilgan iloha.....	20
Qum oyoqli koloss.....	22

YETTI YANGI MO'JIZALAR

Eng uzun qal'a.....	25
Inklarning so'nggi najoti.....	28
Qoyalar shahri.....	30
Meksika piramidalari.....	32
Muhtasham amfiteatr.....	34
Buyuk sevgi yodgorligi.....	36
Iso Masih haykali.....	38

YEVROPA

Tumanli Albion.....	41
Don Kixot vatani.....	44
Qadimiy germanlar yeri.....	46
O, Fransiya, o, Parij.....	48
Yevropaning baland tog'lari.....	50
Qadimgi rimliklarning vorislari.....	52
Buyuk Ellada.....	54
Slavyan mamlakatlari.....	56
Yevropa va Osiyo uyg'unligi.....	58

OSIYO

Yevropa va Osiyo orasidagi ko'prik.....	61
Muqaddas zamin.....	64

Qadimgi taraqqiyot zamini.....	66
Osmonosti imperiyasi.....	68
G'aroyib yarimorol.....	70

AFRIKA

Fir'avnlarning qadimgi yurti.....	73
Afrika tabiati.....	76
Afrika janubi.....	78

AMERIKA

Nyu-York – toshdan iborat changalzor.....	81
Butun qit'a bo'ylab.....	84
G'aroyib tabiat.....	86
Janubiy Amerika mo'jizalari.....	88
Qadimiy va zamonaviy san'at.....	90

AVSTRALIYA

Ko'zdan pana dunyo.....	93
«Qo'lbola» mo'jizalar.....	96

UMMONDAGI OROLLAR

Sirli to'ngaklar.....	99
Lemurlar oroli.....	102
Yashil va muzli yerlar.....	104
Kunchiqish mamlakati.....	106

QUTB MO'JIZALARI

Qutb yulduzi ostida.....	109
Eng janubiy materik.....	112

O'ZBEKISTON VA O'ZBEK XALQI

O'zbek atamasi.....	115
Qadimgi yozuvlar va ilk yozma manbalar.....	117
O'zbekiston hududida davlatchilik.....	121

DUNYONING RANG-BARANGLIGI

Qadimda kishilarni o'z go'zalligi va salobati bilan lol qilgan san'at asarlari hamda me'moriy obidalarga dunyo mo'jizalari sifatida qaralgan.


Dunyo mo'jizalari qatoriga ulkan haykallar va inshootlar – dahmalar, ibodatxonalar, qasrlar kiritilgan. Shu tariqa dunyoning yetti mo'jizasi ro'yxati tuzilgan. Keyinchalik ushbu ro'yxat sayyohlar uchun o'ziga xos yo'l ko'rsatkich vazifasini bajargan. Dunyo mo'jizalarini ziyorat qilish, mashhur inshootlarning go'zalligi va salobatidan bahra olish



istagi turli afsona va taxminlarni keltirib chiqargani rost. Biroq, dunyoda mavjud mo'jizalar shu qadar ko'p-ki, ularni bunday qisqa ro'yxatga sig'dirish amri mahol. Ular afsonalarda emas, kurrai zaminimizda mavjud bo'lgan, ayrimlari hozirgi kunda ham sayyohlarning sevimli ziyoratgohlari hisoblanadi.

Aziz o'quvchi, biz Siz bilan sayyoramizning barcha qit'alari, dengiz va orollari bo'ylab sayohat qilamiz, Yerning qutblariga nazar solamiz. Ko'hna dunyo hisoblanmish Yevropa, Osiyo va Afrikada ham, Yangi dunyo hisoblanmish Amerika, Avstraliya





va Okeaniyada ham ko'plab qiziqarli, betakror va ulug'vor mo'jizalar mavjud.

Yevroosiyo va Afrika – zamonaviy dunyo, taraqqiyotning ilk beshiklaridir. Yunonistonda, Italiyada, Iroq va Misrda qadimgi madaniyat o'choqlaridan guvohlik beruvchi antik san'at yodgorliklari saqlanib qolgan. Amerika qit'asining qadimgi davlatlari, avstraliyalik mahalliy aholi – aborigenlar madaniyati ham hozirgi zamon kishisini ham o'zining mahobatli inshootlari, original san'at asarlari, mukammal texnologiyalari bilan lol qila oladi.


Dunyo mo'jizalari faqat qadimda bunyod etilgan deb hisoblaydiganlar adashadilar, zero hozirgi davrda ham ana shunday mo'jizalar yaratilmoqda. Bularning sirasiga Avstraliyadagi Sidney opera teatri binosini yoki Pragadagi «Raqs tushayotgan uy»... Ularni sanashda davom etgancha bu ro'yxatni yana-da uzaytirish mumkin. Mashhur italyan sayyohi Marko Polo O'rta asrlar¹da (XVII asrda) Sharqqa qilgan sayohati natijasida «Dunyoning rang-barangligi haqida» deb atalgan kitobini yozgan. Biz ham ushbu kitob sahifalari orqali vaqt va makon bo'ylab sayr qilarkanmiz, qadimgi dunyoni, uzoq yurtlarni ziyorat qilamiz, ko'plab betakror va beqiyos mo'jizalarning guvohiga aylanamiz. Dunyomiz naqadar go'zal va rang-barang, shu bilan birga qanchalar omonatligini his qilamiz. Sayyoramiz tabiatining barcha boyligi va xilma-xilligini, uning har burchidagi madaniy yodgorliklarni asrab-avaylash uzoq ajdodlar va kelajak avlodlar oldidagi muqaddas burchimizdir. Buning uchun dunyo mo'jizalari bilan tanishish ilk qadam hisoblanadi. Shunday ekan, qo'lingizdagi kitobni varaqlash ila dunyomiz rang-barangligi bilan tanishishni boshlang.

¹ Qadimgi dunyo tarixi – Yer yuzida odam paydo bo'lganidan to milodiy 476-yilda G'arbiy Rim imperiyasi qulaguniga qadar kechgan voqealar tarixidir. Ushbu sanadan so'nggi davr O'rta asrlar deb ataladi va u 1500-yilgacha, ya'ni Yangi davr boshlanguncha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Demak, 1500-yildan 1918-yilgacha Yangi davr, 1918-yildan to bugungi kunlarimizgacha Eng yangi davr deb o'rganiladi.



Hozirgi davrda dunyo mo'jizalari sirasiga nafaqat qadimda inson tomonidan bunyod etilgan inshootlar, balki tabiatning diqqatga sazovor joylari: qaynoq buloq – geyzerlar, ko'llar, daryolar va o'rmonlar ham kiritiladigan bo'ldi.

Aziz o'quvchi, mazkur turkum kitoblari bilan tanishar ekansiz, unda ko'plab tarix va geografiyaga oid atamalarga duch kelamiz. Biz imkon qadar ushbu atamalarni kitobimiz sahifalari ostida izohlab, sharxlab boramiz.






² Yil sanog'i milodiy birinchi, ya'ni Iso payg'ambar tavallud topgan yildan boshlanadi. Shu sababdan biz ushbu sanadan keyingi voqealarni milodiy yoki eramizning (qisqacha mil.) deb ataymiz va unda yillar o'sib, ko'payib boradi. Undan oldingi voqealarni esa miloddan avvalgi (qisqacha mil. avv.) yoki eramizdan avvalgi (qisqacha er. avv.) deb nomlaymiz va unda yillar ko'pdan kamayib borish xususiyatiga ega.



Miloslik
Venera haykali.
Qadimgi Yunoniston
haykaltaroshi Aleksandr
marmardan ishlagan.
Eramizdan avvalgi?
II asr. Hozirgi kunda Luvr
muzeyida saqlanmoqda

QADIMGI DUNYONING YETTI MO'JIZASI



Dunyoning yetti mo'jizasi ro'yxatini birinchi bo'lib yunon adibi sadonlik Antipatr (eramizdan avvalgi II asr) qayd etgan. Bu ro'yxatga Misr ehromlari, Bobildagi Semiramida osma bog'lari, Efesdagi Artemida ibodatxonasi, Galikarnasdagi shoh Mavzolning dahmasi, ikki ulkan haykal - Rodos orolidagi quyosh xudosi Gelios hamda Olipdagi Zevsning haykallari kiritilgan.

FIR'AVNLAR SAG'ANASI

Afrikaning shimoli-sharqidagi davlat – Qadimgi Misr taraqqiyot beshiklaridan biri hisoblanadi. Qadimgi Misr hududining katta qismi qurg'ochchilikka mahkum bo'lib, bu yerlarda kun ko'rish g'oyatda mushkul bo'lgan. Odamlar asosan vohalarda – suvli zaminda istiqomat qilganlar. Afrika qit'asidagi eng katta voha – **Nil qirg'og'i** vohasidir. Ushbu daryo dunyodagi eng uzun daryo deya e'tirof etilganini yaxshi bilasiz. Nilning hosildor yerlaridagi dalalarda qadimgi misrliklar don, sabzavot va mevalar yetishtirishgan. Qadimgi Misr davlat hokimiyati tepasida qudratli podshohlar – fir'avnlar turishgan.

Fir'avnlar tirikligida xudo deya ulug'langan, o'lganidan so'ng esa haybatli ehromlar – piramidalarga dafn qilingan. Fir'avnlarning ushbu



Misr ehromlarini o'n minglab kishilar bir necha yillar davomida bunyod qilishgan



tosh dahmalari shohlarning ilohiyligini tasdiqlashi, abadiyatning o'tkinchi inson umridan ustunligini isbotlashi lozim edi. Har bir piramidaning asosi kvadrat shaklda bo'lib, to'rtta uchburchakli yon devor cho'qqi uchiga birlashadi. Bunday piramidalarning 80 ga yaqini Nil daryosining g'arbiy sohilidagi vohada joylashgan va saqlanib qolgan. Hozirgi paytda bu yerlarda (Misr poytaxti Qohiraning janubida) **Giza** va **Sakkara** aholi turar-joylari joylashgan.

Fir'avnlr o'z piramidalarida behisob boyliklarini saqlashgan. Bu dahmalardagi boyliklarni talonchilardan asrash uchun ularga kirish yo'lini to'sib tashlashgan. Biroq talonchilar fir'avnlarning g'azabidan qo'rqishmagan, ularning ko'pchiligi qadimgi davrning o'zidayoq talon-tarojga uchragan.

Misr ehromlari qadimgi dunyoning yetti mo'jizalaridan bizgacha yetib kelgan yagonasidir



Eng birinchi dahma – **fir'avn Joser** ehromini me'mor Imxotep eramizdan avvalgi XXVIII asrda bunyod etgan bo'lib, uning yoshi hozirda besh ming yilga tenglashib qoldi.

Eng ulkan piramida **fir'avn Xeops** sharafiga bunyod etilgan. Qadimgi Tarixchi Gerodotning yozishicha, ushbu piramidani yuz ming kishi



20 yil mobaynida bunyod etgan. Ushbu piramida qurilishi Xeops taxtga o'tirgan davrdayoq boshlangan bo'lib, jami 2,5 million tosh bloklardan qad tiklagan.


Xeops piramidasining balandligi – 146,6 metr, asosining tomonlari – 233 metr.

Undan sal kichikroq piramida –

Xefren dahmasi 143,5 ga 215,25 metrni tashkil etadi.

Bu ikki piramidaning yaqinida uchinchi – Xefrenning o'g'li bo'lmish **Mikren piramidasini** joylashgan.





FAROS MAYOG'I

Miloddan avvalgi to'rtinchi asrda buyuk sarkarda makedoniyalik Aleksandr qadimgi dunyo manzarasini o'zgartirib yubordi. Aleksandr Yunoniston, Bobil, Eron, Misrni zabt etdi, Markaziy Osiyoni bosib oldi, Hindistongacha yetib bordi. U zabt etilgan hududlarda yangi shaharlarga asos soldi va ularning ko'pchiligi Aleksandr nomi bilan ataldi. **Misr Aleksandriyasi** ham ana shunday ulug'vor shaharlardan biriga aylanishi lozim edi.

Mayoq qurilgan Faros oroli sharafiga o'shandan beri quriladigan barcha mayoqli minoralarni «faros» deb ataydigan bo'lishdi. «Chiroq» ma'nosini beruvchi «fara» atamasi ham Faros oroli nomidan kelib chiqqan.

Makedoniyalik Aleksandr Aleksandriyada dengiz kemalariga yo'l ko'rsatishi uchun tepasida olov yoqiladigan ulkan mayoqli minora qurdirishga qaror qildi. Nil daryosining O'rtayer dengiziga quyilish joyidagi Faros oroli tanlandi. Mayoq qurilishi Aleksandr vafotidan so'ng, eramizdan avvalgi 300-yilda boshlanib, 279-yilda, ya'ni yigirma bir yilda yakuniga yetkazilgan.

Mayoq minorasi uchta katta qavatlardan iborat. Eng pastki qavat 71 metr bo'lib, tepaga qarab torayib borgan. O'rta qavat sakkiz qirrali bo'lib, 34 metr balandlikka ega. Uning tepasiga gulxan yoqiladigan asosiy minora o'rnatilgan. Ushbu 130 metrli minoraning eng tepasiga Zevs haykali o'rnatilgan



Me'mor **knidlik Sostrat** o'z davrdagi me'morchilik texnologiyasining barcha ilg'or an'alariga amal qilgan holda qurilishni amalga oshirgan. Minoraning o'rtasida gulxan yoqiladigan gumbazga eltuvchi shaxta joylashgan. Kerakli yuklar yuqoriga arqonlar yordamida ko'tarilgan. Mayoq dengizchilarga kecha-yu kunduz xizmat ko'rsatgan. Kunduzlari dengizchilar mayoqdan o'rlayotgan quyuq tutunga qarab, tunlari esa yorqin alangaga qarab yo'l topishgan. Yorug'likni kuchaytirish uchun yaxshilab silliqlangan bronza ko'zgular tizimi qo'llanilgan. **Aleksandriya mayog'i** faqatgina yo'l ko'rsatuvchi inshootgina bo'lib qolmay, haqiqiy san'at asari ham hisoblangan. Oppoq marmarlar, chiroyli haykallar silsilasi, bir-biridan farqlanib turuvchi qavatlarining go'zalligi shahar ahli va mehmonlarda katta taassurot qoldirgan.

Mayoqli minora o'n olti asrdan ko'proq vaqt qad rostlab turgan. Yuz bergan zilzilalar, qarovsizliklardan u bora-bora nuray boshlagan. Bundan olti yuz yil avval ham uning 30 metrlik pastki qismi (bu hozirgi o'n qavatli uyning balandligiga teng) qad tiklab turar edi. Hozirgi kungacha uning poydevori yetib kelgan, aniqrog'i bu poydevor ustiga O'rta asrlarda qal'a binosi qurilgan.



Mayoqli minoraning tepasida yoqilgan gulxanning shu'lasini 50 kilometr masofadan ham ilg'ash mumkin bo'lgan



CHAQMOQLAR SOHIBI O'Z UYIDA



*Zevs o'ng kaftida
g'alaba siymosi –
qanotli Nikani ko'tarib,
chap qo'lida esa
skipetr – shohlik timsoli
bo'lgan asoni ushlab
o'tirgan*

Qadimgi Yunonistonning Peloponnes yarimorolida joylashgan Olimpiya shahri bizga mashhur Olimpiya o'yinlari ta'sis etilgan maskan sifatida ma'lum bo'lsa, qadimgi yunonistonliklar uchun esa, birinchi navbatda, ularning o'sha davrlardagi eng oliy xudosi – chaqmoqlar sohibi Zevsga hurmat bajo keltiriladigan diniy markazi hisoblanardi. Zevs ibodatxonasida dunyodagi yetti mo'jizadan biri – **Zevs haykali** joylashgan bo'lib, uni haykaltarosh Fidiy ishlagan edi. Haykal o'zining salobati bilan ko'ngillarga qo'rquv aralash hayrat solardi. O'tirgan holatdagi haykalning balandligi ta'mal toshi bilan qo'shib hisoblaganda 14 metr, uning kaftidagi Nika odam bo'yi balandligiga ega edi.

Afinalik Fidiy yunonlar orasida mohir haykaltarosh sifatida e'zozlanardi. Afsuski, bizning davrimizgacha haykaltaroshning birorta salobatli asari yetib kelmagan. Fidiyning qanchalar ulug' san'at egasi ekanligi haqida faqatgina bu ishlarning ko'chirma nusxalari va Afinada saqlanib qolgan Parfenon ibodatxonasi qoldiqlari orqaligina baholay olamiz, xolos. Olimpiyadagi Zevs haykalidan tashqari Fidiy yana Afina Akropolidagi iloha


Afina Promaxos (Jangovar ayol)ning bronzadan yasalgan haykali, bundan tashqari, Parfenon ibodatxonasi ichiga joylashtirilgan **Afina Partenos** haykalining ham muallifi bo'lgan. Xuddi Zevs haykali kabi u ham oltin va fil suyaklari bilan qoplangan (ba'zan bu haykalni ham dunyoning yetti mo'jizasi qatoriga qo'shishgan).

Qadimgi yunon geografi va tarixchisi Strabon Zevs haykalini shunday tasvirlagan: «U shu qadar yuksak ediki, haykaltarosh haykalni yaratganida qo‘pol xatoga yo‘l qo‘yganday, mabodo u taxtdan turib ketgudek bo‘lsa, ulkan ibodatxonaning tomini qo‘porib tashlaydigandek tuyulardi».

Zevs haykalini Fidiy oltin va fil suyagi bilan qoplatgandi. Qimmatbaho qurilish ashyolari haykalning ulkan yog‘och asosiga yopishtirib chiqilgandi. Zevs kedr yog‘ochidan yasalgan, qora daraxt shoxlari hamda qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan ulkan taxtda o‘tirardi. Taxtdagi bezaklar yunon asotirlaridagi voqealar tasviri bilan boyitilgan. Momoqaldiroqlar sohibining boshiga oltindan ishlangan zaytun chambari – tinchliksevarlik timsoli kiydirilgandi. Uning boshi, yuzlari va beligacha yalang‘och gavdasi fil suyaklari bilan ishlangan. Zevsning egniga tashlangan mato, sochlari va soqoli oltindan qoplangan edi. Baxtga qarshi, haykal saqlanib qolmagan – milodiy beshinchi asrda, ya‘ni bundan bir yarim ming yil avval yuz bergan yong‘in sababli haykalning yog‘ochdan qilingan asosi kuyib kul bo‘lgan.



Haykaltarosh Fidiy



Zevs ibodatxonasi elidalik me‘mor Libon tomonidan miloddan avvalgi 45-yilda qurilgan edi

SAHRO ORASIDAGI BOG'LAR



Osiyodagi Yevfra daryosi sohilidagi qadimiy shahar Babil qadim dunyoning buyuk poytaxtlaridan biri edi. Turli davrlarda bu shaharning bir qancha inshootlari dunyo mo'jizalari qatorida tilga olingan. Injil kitobida ulardan biri – **Babil minorasi** haqidagi hikoya saqlanib qolgan. Naq Arshi a'loni ko'zlab yuksalgan minorani ko'rib g'azabi qo'zg'agan qadimgi odamlarning ilohlari uni qurayotgan ustalar tilini turli-tuman qilib qo'yadi. Natijada bir-birini tushunmagan quruvchilar orasida nizo, kelishmovchiliklar paydo bo'ladi.

Riyoyatga ko'ra, Babil minorasini bunyod etayotgan ustalar o'z ishlarini tashlab, har tomonga tarqalib ketishadi.

Ba'zan dunyo mo'jizalari qatoriga ulkan shaharni 90 kilometr uzunlikda o'rab turgan **mudofaa devorlarini** ham qo'shishgan! Ammo bularning

Sersoya bog'lar saroy tomlari va ayvonlarda barq urib ko'karardi



shon-shuhratini **Bobilning osma bog'lari** ortda qoldirib ketadi. Bu bog'larni yana Ossuriya malikasi nomi bilan **Semiramida bog'lari** deb ham atashgan. Ammo, bu bog'larni Semiramidadan ikki asr keyin yashab o'tgan shoh Navuxodonosor yaratgan. Bundan tashqari, Navuxodonosor Bobil minorasi va mudofaa devorlarini




Jazirama oftob taftida yashab o'rgangan Bobil ahli uchun bu bog'lar jannatni ta'riflovchi afsonalarni eslatardi

Bog'larni sug'orishda pastki qavatlarga suv singmasligi uchun turli ashyolardan qilingan ko'pqavatli qurilish ashyolarini o'ylab topishgan. Eng ostki qatlam suv o'tkazmaydigan asfaltdan, uning ustidan pishirilgan g'ishtlar terib chiqilgan va qo'rg'oshin plastinkalar bilan qoplangandan so'nggina ustiga hosildor tuproq to'kilgan.

ham qurdirgan. Shoh Navuxodonosorning xotini, ikki daryo oralig'idagi Fors yurtida tug'ilib voyaga yetgan malika o'z yurtini sog'inib g'amga botmasligi va shohning uzundan-uzoq harbiy yurishlari payti zerikmasligi uchun shoh Navuxodonosor shahar inshootlarining tomlari va ayvonlarida bog'lar yaratish haqida buyruq beradi. Shoh koshonalariga daraxt ko'chatlari, butalar va gul urug'lari dunyoning turli burchaklaridan keltirilgan. Shartli ravishda aytish mumkinki, Navuxodonosor birinchi bo'lib o'ziga xos botanika bog'iga asos solgan.

Toshdan qoplangan tomlar ustida bog' yaratish sug'orishning ilg'or texnologiyalarini ishlab chiqishni talab qilardi. Suvni quduqlardan yoki Yevfrat daryosidan olishardi. Qullarning og'ir mehnati evaziga idishlarga to'plangan suv eng baland minoraga olib chiqilar, so'ng novlar orqali bog'dagi o'simlik va daraxtlar ostiga quyilardi.



MAVZOLNING BOQIY SHUHRATI



«Mavzoley» – buyuk zotlarning qabri ustiga oʻrnatiladigan maqbarani anglatadi. Ammo bu soʻzning ildizi borib-borib eramizdan avvalgi IV asrda yashab, Kichik Osiyo yarimorolidagi mitti davlat Quriyaning poytaxti Galakarnasni boshqargan shoh Mavzolga taqalishini bilasizmi? Xuddi mana shu shaxsning nomidan «mavzoley» atamasi kelib chiqqan. Galakarnasda Mavzolning qabri uzra uning bevasi Artemiziya tomonidan tiklangan shohona maqbara dunyo moʻjizalaridan biriga aylandi. Shoh Mavzolning oʻlimidan keyingi shuhrati esa uning moʻjazzgina davlati sarhadlari osha dunyoga tarqaldi.

Galikarnasdagi mavzoley mana shunday koʻrinishda boʻlgan deb taxmin qilishadi

Maqbarani meʼmorlar Satir va Pifey boshchiligida bunyod etishdi. Shoh Mavzol eramizdan avvalgi 352-yilda vafot etgan boʻlsa-da, unga atalgan maqbaraning qurilishi uning tiriklik davridayoq



boshlangan va nabiralari davriga kelib tugallangan bo'lishi ham mumkin.

Mavzoleyning asosini Mavzol va Artemiziyaning qabrlarini o'z ichiga olgan ulkan kub tashkil qilgan. Bu kub yunon ibodatxonasiga poydevor sifatida xizmat qilgan. Ibodatxona tomini yunonlarga xos ikki taraflama qiya tom emas, to'rt qirrali piramida yakunlagan bo'lib, uning ustiga marmar kvadriga (to'rt otli poyga aravasi) o'rnatilgan. Bunday me'moriy yakun na Sharqda, na Yunonistonda va na Misrda kuzatilmagandi.

Ulkan, ellik metrli maqbara betakror me'moriy uslubi bilangina emas, yuksak did bilan yaratilgan haykal bezaklari bilan ham mashhur edi. O'yma bezaklari va haykallarning mualliflari – Leoxar, Timofey, Briksid, **Skopas** kabi buyuk yunon haykaltaroshlari edi. O'yma bezaklarda amazon sahnalari – yunon jangchilarining amazonkalar, ya'ni jangchi ayollar bilan qilgan janglari tasvirlangandi. Haykallar va o'yma bezaklar qoldig'i XIX asrda o'tkazilgan qazuv ishlarida topilgan, keyinchalik Londondagi Britaniya milliy muzeyiga qo'yilgan.



Mavzol va Artemiziya haykallari qazuv ishlari mobaynida topilgan

Mavzol maqbarasi bir yarim ming yilcha qad tiklab turdi. Eramizning XII asriga kelib qattiq zilzila natijasida uning katta qismi vayron bo'ldi. Oradan uch yuz yil o'tgach, odamlarning o'zi uni batamom buzib tashlashdi va maqbaraning marmar toshlari qal'a qurilishida ishlatildi.



YOQIB YUBORILGAN ILOHA



Artemida

Kichik Osiyo yarimorolida joylashgan Efes shahri Zevsning qizi, xudo Apollonning singlisi bo'lmish – **Artemidaga** topinish markazi edi. Artemidani ov ilohasi va jonvorlar homiysi, shu bilan birga, tug'ayotgan ayollarni qo'llovchi iloha sifatida ulug'lashgan. Efes aholisi iloha Artemida (Diana) ga munosib uy qurishni orzu qilishardi (yunonlarda ibodatxonalarga topinadigan joy sifatida emas, o'zlari yaxshi ko'radigan ilohlari ko'zga ko'rinmas tarzda istiqomat qiladigan uy sifatida qaralardi). Eramizdan avvalgi VI asrga kelib Kichik Osiyoning ko'plab shaharlari kabi Efes ham Lidiya shohligiga tobe qilindi va ibodatxona qurilishi harajatlarini Lidiya shohi Krez o'z zimmasiga oldi.

Efesliklar ibodatxonani botqoqlik uzra bunyod etishni rejalashtirishdi: chunki Kichik Osiyoda tez-tez yuz beradigan zilzilalar chog'ida loyli botqoqlikdan iborat asos ibodatxona uchun yumshoq yostiq vazifasini o'tashi va vayron bo'lishdan saqlab qolishi ko'zda tutilgandi. Ibodatxonani kritik me'mor Xersifron boshlab, uning asosiy muqaddas qismi – sellasini qurdi va ustunlarni o'rnatdi. Qurilishni uning o'g'li Metagen davom ettirdi va



*Ibodatxona tomini
127 ta salobatli
ustunlar ko'tarib
turardi*

ibodatxona tomini yopdi. Peonit va Demetriy kabi me'morlar ibodatxonaning bezaklarini nihoyasiga yetkazishdi. Oq marmar bilan qoplangan ibodatxona tekislik uzra xuddi parvoz qilayotgandek taassurot qoldirardi. O'yma bezakli ustunlar uzra yotgan marmar tom xuddi vaznsizdek tuyulardi.

Efes shahri va Yunonistonning iftixori bo'lgan ajoyib ibodatxona eramizgacha bo'lgan 550-yilda qurib bitkazildi. Oradan ikki yuz yil o'tar-o'tmas, eramizgacha bo'lgan 356-yilning yoz tunlaridan birida ibodatxonaga qo'lida mash'ala tutgan bir devonasifat kimsa kirib bordi. Ibodatxonaning shiftidagi mumlangan bolorlarga bir zumda olov tutashdi, marmar plitalar yerga quladi, ustunlar yuqori haroratga dosh bera olmay chatnagancha darz keta boshladi. Uni tutib olganlarida o'zini **Gerostrat** deb tanishtirgan. Bu ishni u nomi tarixda qolishi uchun qilganligini aytgan. Shoir G'afur G'ulom bir she'rida shunga ishora qiladi:

*Shuhrat qozonmoqqa Gerostratdek
Diana ma'budin yoqmoq shart emas...*

Yunon tarixnavisi Plutarxning xabar berishicha, ibodatxona makedoniyalik Aleksandr tug'ilgan kechada yoqib yuboriladi. Yunonlar bu haqda: «Artemida ibodatxonasi yonib ketganiga ajablanmasa ham bo'ladi, axir bu paytda iloha Aleksandrning dunyoga kelishida yordam ko'rsatish bilan band edi», deyishgandi.

Gerostrat qatl etiladi va efesliklar uning nomi unutilishga mahkum deya ont ichadilar. Ibodatxonani esa qaytadan me'mor Xeyrokrata boshchiligida o'sha joyning o'zida tiklashadi. Aynan mana shu, qaytadan bunyod etilgan ibodatxona dunyoning yetti mo'jizalari ro'yxatidan o'rin oldi. Bir necha asr qad ko'tarib turgan ibodatxonani bosqinchi varvarlar vayronaga aylantirishadi.



*Efesda Artemidani
hosildorlik ilohasi sifatida
e'zozlashar va uni ko'p
siynali, ajoyib ayol sifatida
tasvirlashardi*



Demetriy Poliorket

QUM OYOQLI KOLOSS

Eramizdan avvalgi 305-yilda **Rodos** oroli aholisi mashhur lashkarboshi Demetriy Poliorketning (laqabi yunonchada «shaharlarni qamal qiluvchi» ma'nosini beradi) qamaliga dosh berishadi. Buning sharafiga esa orolning homiysi bo'lgan quyosh xudosi sanalmish Geliosning ulkan haykali – kolossni bunyod etishga qaror qilishdi. Uning qurilishiga dushmanlardan tortib olingan o'ljalar (qurol-aslahalar, qalqonlar) dan foydalanishni niyat qilishadi. Orol aholisi quyosh xudosi Geliosni bekorga tanlashmagan edi. Dengiz xudosi Poseydonning qizi – Nimfa Rodani Geliosning xotini deb hisoblashardi. Dengiz xudosining kelib chiqishi esa orol bilan bog'liq deb hisoblangan.

Quyosh xudosi Geliosni bronzadan bunyod etish mashhur haykaltarosh Xeretga topshiriladi.




Ushbu qayta tiklangan suratda go'yo kemalar kolossning oyoqlari orasidan bandargohga suzib kirayotgandek ko'rinadi. Aslida esa haykal shaharning o'ziga o'rnatilgan bo'lishi ham mumkin

Xeret ishga kirishar ekan, 32 metrli balandlikka ega haykalni yaratishdan avval metall tirkamalar (karkaslar) o'rnatib, unga loy-tuproqli tepalik yaratdi. Haykal asosini bronza jezlari bilan qoplab chiqa boshlashdi. Haykal qanchalik qad ko'tarsa, tepalik ham shunchalar yuksala boshladi. Ichi bo'sh haykalning mustahkamligini ta'minlash uchun uning ichi toshlar bilan to'ldirilib chiqildi. Gelios haykaliga jami 12 tonna tunj (bronza) sarflandi. Haykal ichiga to'ldirilgan toshlar og'irligining esa hisobi yo'q... Marmar tamal toshlari uzra bo'y cho'zgan Gelios shu qadar bahaybat bo'lib chiqdi-ki, uning barmoqlari odamning bo'yidan ham uzun edi.

Koloss qurib bitkazilganidan so'ng bir asr vaqt ham qad tiklab tura olmadi: eramizdan avvalgi 224-yilda Rodosda kuchli zilzila yuz berdi va bahaybat haykal qulab tushdi. O'shandan beri tashqi ko'rinishidan haybatli, biroq asosi mustahkam bo'lmagan narsalar haqida, garchi asl Gelios kolossining oyolari bronzadan ishlangan bo'lsa-da, «**qum oyoqli Koloss**» iborasi ishlatiladigan bo'ldi. Kolossning ulkan parchalari Rodos bandargohida ming yillar davomida sochilib yotdi. Keyin bu parchalarni noma'lum savdogarga sotib yuborishdi. Aytishlariga qaraganda, o'sha savdogar haykal parchalarini 900 bosh tuyalarga orttirib olib ketgan emish...

Koloss haykali dengizchilarga mayoqlik vazifasini ham o'tagan: uning o'ng qo'lida ulkan gulxan yonib turgan cha dengizchilarga yo'l ko'rsatgan.



YANGI YETTI MO'JIZA



Qadimgi dunyoning yetti mo'jizasidan faqat piramida shaklida qad ko'targan ehromlarga saqlanib qolgan, xolos. Bizning zamondoshlarimiz esa ayni kunlarda ko'rsa bo'ladigan dunyoning yetti mo'jizasi ro'yxatini tuzib chiqmoqchi bo'lishdi.

Bunday ro'yxatga kirish uchun davogarlar soni 77 tani tashkil qildi. Bulardan yetitasini tanlab olish uchun kurramiz aholisi internet orqali ularga ovoz berishi taklif etildi. Berilgan ovozlar tahlil qilinganidan so'ng, aniqrog'i 2007-yilning 7-iyulida, ya'ni 07.07.07 sanasida yangi dunyoning yetti mo'jizasi ro'yxati e'lon qilindi.

Bu ro'yxatga: Buyuk Xitoy devori, qadimgi inklarning Machu-Pikchu shahri (Peru), Petra qoyali shahri (Iordaniya), Chichen-Itsadagi maya hindularining piramidalari (Meksika), Kolizey amfiteatri (Italiya), Toj-Mahal maqbarasi (Hindiston) va Iso Masihning haykali (Braziliya) kiritildi.






ENG UZUN QAL'A

Bir zamonlar Xitoyni birlashtirgan va uning birinchi imperatori bo'lgan Shin Shixuandi mamlakatning shimoliy sarhadi bo'ylab ko'chmanchilar bosqinidan muhofaza etadigan mustahkam devor qurish haqida farmon berdi. Bir mudofaa inshootidan ikkinchisigacha oraliq masofalar devordan iborat istehkom bilan tutashtirila borib **Buyuk Xitoy devori** qurilishi

Hozirgacha saqlanib qolgan devorning uzunligi 2500 kilometr. Shu bilan birga ularning yonlamasiga qo'shilgan va tarmoqlanib ketgan qismlarini ham qo'shib hisoblaganda uning uzunligi bema'lol 6 ming kilometr chiqadi






boshlab yuborildi. Bu eramizdan avvalgi III asrlarda yuz berdi va mazkur qurilish ishlari olti yuz yilga yaqin vaqt davom ettirildi. Afsonalarda aytilishicha, devor qurilishi imperator o'zining qanotli oti bilan bir kunda bosib o'tgan 10 ming li (5 ming kilometrdan ko'p) yo'l bo'ylab davom ettirilgan. Uchqur otning tuyoqlari tekkan makonlarda **qorovullik minoralari** bunyod etildi. Minoralar orasi esa kamon o'qining ikki uchish masofasicha kelardi. Bu esa minoradan har ikki tarafga qarab kamondan o'q uzib, mudofaani amalga oshirishni maqsad qilgandi. Har yigirma kilometr oraliqda doimiy askarlar jangovar holatda shay bo'lib turadigan katta **garnizon minoralari** joylashtirilgandi.

Buyuk Xitoy devori uzra zarur xabarni bir kecha-kunduzda bir chetidan boshqa chetiga bemaolol yetkazish mumkin edi. Axborotni yetkazish uchun tutunning rangi va havoga ko'tarilishi, olovning past-balandligi, rangi kabi shartli belgilardan foydalanishgan.





Hozirgacha saqlanib qolgan Devorning o'rtacha balandligi 79 metr, kengligi esa 5 metr bo'lib, devor ustida aravalar bemaol qatnay oladi. Devor uzra bemaol butun mamlakat sarhadilari bo'ylab sayr qilish mumkin edi.





INKLARNING SO'NGGI NAJOTI

XVI asrda yaqinida kashf qilingan Janubiy Amerika qirg'oqlariga yevropalik istilochilar – ispan kemalari langar tashladi. Ular hozirgi Peru hududida mavjud bo'lgan hindularning **inklar davlatiga** qarshi urush e'lon qildilar. Yaxshi qurollangan, berahm va makkor istilochilar hindularni tobe qilishdi va ularning shaharlarini talon-taroj qilishdi. Bir paytlar mavjud bo'lgan baxtli va badavlat mamlakat haqida xotiralar faqat hindularning afsonalarida qoldi, xolos.

Hikoya qilishlaricha, inklarning qadimgi poytaxti Kuskodagi bog'ni o'simliklar va jonvorlarning toza oltindan quyilgan haykallari bilan bezashgan ekan. Hindular oltinni yaxshi ko'rishardi, uning jilvalanishi quyosh nurlarini eslatar, o'zlarini esa quyoshning farzandlari deb hisoblashardi. Yana devorlari ulkan va zalvorli xarsanglardan qurilgan qal'a vayronalarida mazkur qadimgi davlat haqida bitiklar saqlanib qolgan.

1911-yilda tadqiqotchi olimlar Janubiy Amerikaning eng yuksak And tog'larida **Machu-**



Qadimgi Machu-Pikchu shahrining eng gullab-yashnagan davrlari ehtimol mana shunday ko'rinishda bo'lgan

Pikchu shahar-qal'asi vayronalari izini topishga muvaffaq bo'lishdi. Shahar-qal'a vayronalari shu nom bilan ataladigan (tarjimasi: «Ko'hna cho'qqi») tog'ning poyida, Kusko shahridan shimoli-g'arbda, dengiz sathidan 2,5 ming kilometr balandlikda joylashgandi. Qadimiy shaharning inshootlari qoyalardan o'yilgan ayvonlarda bunyod etilgan va bir-biri bilan zinapoyalar bilan birlashtirilgandi. Hozirgi kungacha shahardagi saroy, uy-joylar, ibodatxonalar, hatto kohinlar yulduzli osmonni kuzatadigan maydonlar – rasadxona qoldiqlari saqlanib qolgan.

Machu-Pikchu – jumboqlar shahri. Nima uchun hindular poytaxtdan olis va shunchalar balandlikda bunday shaharni qurishgan? Nima uchun ispanlarning qadami yetmagan bu shahar-qal'a oxir-oqibat bo'shab, vayrona holiga kelib qolgan? Hozircha bu savollarga javob yo'q. Shunga qaramay Machu-Pikchuning vayronalari o'z buyukligi bilan aqlni lol qiladigan dunyo mo'jizalaridan biri bo'lib qolaveradi.



*Machu-Pikchu
vayronalari
(hozirgi ko'rinishi)*

Ulkan va zalvorli xarsanglardan devor tiklashni hindular qanday uddalashganligi ustida olimlar haligacha bosh qotirishadi. Axir Janubiy Amerika aholisi hatto g'ildirak nimaligini ham bilishmagan...



QOYALAR SHAHRI



Shundoqqina qoyalar bag'rida o'yib yaratilgan **Petra shahri** g'oyatda g'aroyib qadimgi shahar bo'lib, Arabiston yarimorolida joylashgan hozirgi **Jordaniya** davlati hududidadir. Eramizdan avvalgi III va II asrlarda Petra arab qabilalaridan biri bo'lmish nabateylar davlatining poytaxti hisoblangan. Petra shahri Sharq va G'arb karvon yo'llari tutashgan joyda bo'lganligi uchun bu yerda yunon va misr-arab san'ati hamda madaniyati uyg'unlashib ketgan.

Petra haqida ilk qaydlar eramizgacha bo'lgan VII asrlarga tegishli. Shahar savdo yo'llari tutashgan tog'li vodiya joylashgan. Shaharning kengayishi va rivojlanishi bir necha asrlar davom etgan va eramizning 105-yilida rimliklarning istilosi bunga nuqta qo'ygan. Rimlik istilochilar davrida Petra shahri inqirozga yuz tutib, aholi bu yerlarni tark eta boshlagach, kichkina shaharchaga aylanib qoladi. Uning mashhurlik bobida raqobatchisi hisoblangan **Palmira shahri** (hozirgi Suriyada) esa gullab-

*Petraning qoyalar
bag'ridagi qabristoni*



yashnaydi. Suriyaning Palmirasi, uning shon-shuhrati ko'p asrlar zavol bilmadi. Hatto, Pyotr I asos solgan Sankt-Peterburg – Rossiyaning madaniy poytaxtini ko'pincha «Shimoliy Palmira» deb ham atashadi. Ammo, Petra o'zining zavolga yuz tutgan mashhurligini bugungi kunda yana qaytarib oldi. Agar Palmiraning muhtasham saroylari, ustunlari avval rimliklar tomonidan, keyinchalik vaqt izmi bilan vayronaga aylangan bo'lsa, Petraning qoyalar bag'riga o'yilgan ibodatxonalari va qabristonlari bugungi kungacha asl holida saqlanib qoldi. Haqli ravishda Petrani dunyoning zamonaviy yetti mo'jizalaridan biri sifatida tilga olamiz.



*El-Xaznex
ibodatxonasi*

Petraning tosh ma'budlari va obidalari bir qator ilohlarga bag'ishlangan. Ulardagi bitiklardan nabateylarning qadimgi ilohlaridan biri - Dushar (yoki Dushar) nomini o'qish imkonini berdi. Yana sirli iloha al-Utssaning nomi ham bilib olindiki, bu nom bilan arablar «tong yulduzi», ya'ni Venera sayyorasini ham shunday atashgan.

Petrada qoya bag'ridan o'yilgan ibodatxonalar, qurbonlik qilinadigan maskanlar, qabristonlar va uy-joylar saqlanib qolgan. Eng chiroyli ibodatxona **El-Xaznex** hisoblanib, uning ikki qavatli peshayvoni 20 metr balandlikka ega. Yana shaharda 3 ming odamni o'ziga sig'diradigan yarimdoira teatr ham mavjud. Ushbu qadimgi arab inshootini rimliklar yanada kengaytirganlar. Qoyalar bag'ridan o'yilgan **El-Diyar** ibodatxonasi El-Xaznexdan ikki barobar baland. Juda ko'plab qoyali qabristonlar: boylarning dabdabali va kambag'allarning odmigina qabrlari saqlanib qolgan. Nabateylar marhumlarni yerga ko'mmasdan, toshdan o'yilgan mozorga tushirib, ustini tosh qopqoqlar bilan yopib qo'yishgan. Petra asosan qizil qumtoshlardan o'yilgan. Bu g'aroyib qumtosh kun davomida dam qizil, dam pushti, dam sarg'ish, dam zarg'aldoq tusda ko'rinadi.

MEKSIKA PIRAMIDALARI



Ko'p asrlar muqaddam, hali ummonorti yurtlari haqida hech qanday tasavvur bo'lmagan paytlarda, hozirgi Meksika (Shimoliy Amerikaning janubidagi davlat) va Markaziy Amerikaning bir qancha kichik davlatlarini o'z ichiga olgan qudratli **Mayya davlati** mavjud bo'lgan. Mayya xalqining buyuk tamadduni eramizdan avvalgi yuzinchi yillikda boshlanib, to XVI asrgacha taraqiy etib kelgan. Mayyalar ulkan tosh inshootlar, ibodatxonalar qurishgan, ip-toladan tikilgan liboslar kiyishgan, oltin va misdan yasalgan taqinchoqlar taqishgan. Mayyalarning ilk o'troq yashaydigan qishloqlari o'rnida vaqti kelib ulkan shaharlar paydo bo'lgan. Bu shaharlarda hukmdorlar yashashgan, ibodatxonalar qurilgan, tarixni o'zida mujassam etgan bitiklar va turli tasvirlar o'yilgan tosh ustunlar barpo qilingan.


Mayyalar Kolumb sayohatigacha bo'lgan davrda Amerikaning eng usta me'morlari bo'lishgan. Hozirgi paytda **mayya piramidalari** butun dunyoga mashhur. Ushbu ehromlar ibodatxonalar uchun

*«Ming ustun guruhi»
qurshovidagi «Jangchilar
ibodatxonasi»*



poydevor vazifasini bajarishgan: ehromlar qanchalik baland bo'lsa, kohinlar shunchalar osmonga yaqin bo'lishgan. Bunday ko'tarilishlar g'oyatda mushkul bo'lib, yuqoriga eltuvchi zinalar qiyaligi juda ham tik qilib bunyod etilgan. Zinalarning balandligi turlicha bo'lib, ularning chetida to'siqlar bo'lmagan. Ba'zan bunday zinalarni ehromlarning to'rttala tarafida ham bunyod qilishardi. Mayyalar hatto to'p bilan o'tkaziladigan o'yinlar uchun stadionlar ham barpo qilishgan.

Mayyalarning Tikal, Ushmal, Palenke, Mayyapan, **Chichen-Itsa** kabi shahar vayronalari yaxshi saqlanib qolgan. Chichen-Itsa yangi dunyo mo'jizalari ro'yxatiga kiritilgan. Yukatan yarimoroli shimolida joylashgan Chichen-Itsa o'z ibodatxonalari bilan mashhur.



*«Karakol»
rasadxonasi
(observatoriyasi)*

Chichen-Itsani hali yevropaliklar Amerika qit'asiga kirmaslaridan avvalroq mahalliy aholi allaqanday noma'lum sabablarga ko'ra tashlab ketishgandi. X asrda uni mayyaliklarning dushmanlari bo'lgan tolteklar egallab olishadi, XII asrda esa uchta dushman davlatlarining birlashgan lashkarlari tomonidan talon-taroj qilinadi. Shahar vayronalarini changalzorlar qoplab oladi va shu sababi bo'lsa kerak, bu vayronalar hozirgi kungacha yaxshi saqlanib qolgan.

To'qqiz bosqichli, 24 metr balandlikka va to'rt tarafida zinalarga ega ehromni **«Kukulkan ibodatxonasi»** deb atashadi. Shu qatorda yana unchalar baland bo'lmagan to'rtbosqichli «Jangchilar ibodatxonasi», g'aroyib devoriy suvratlarga ega «Yaguarlar ibodatxonasi», «Ming ustun guruhi» – to'rtburchak maydonni qurshab olgan ustunlar qatori ham saqlanib qolgan.

Mayyalar osmon ilmiga ham katta qiziqish bildirganlar, samoviy yoritkichlarni kuzatganlar, o'z kalendar-taqvimlarini yaratganlar. Ehtimolga ko'ra, mayyalarining har bir katta shaharlarida tungi samoni kuzatish uchun observatoriyalar mavjud bo'lgan. Bunday kuzatuvlar bilan kohinlar shug'ullanishgan. Chichen-Itsada doira shaklidagi ibodatxonada **«Korakol» observatoriyasi** joylashgan.

MUHTASHAM AMFITEATR



*Yarim vayrona holida
ham Kolizey o'zining vazmin
savlati va yetuk me'morchlik
asari ekanligi bilan kishini
hayratga soladi*

Italiya poytaxti Rimda me'moriy yodgorliklar judayam ko'p. Ularga bundan 2,5 ming yil avval asos solingan. Shunga qaramay, bu yodgorliklardan faqat eramizning birinchi yuz yilligida qurilgan **Kolizey**gina nafaqat Rimdagi, shu bilan birga Yevropadagi yagona vakil sifatida dunyoning yangi yetti mo'jizasi qatoridan o'rin oldi.

Kolizey – bu ulkan **amfiteatr**. Qadimda amfiteatr deb hozirgi stadionlarni eslatuvchi inshootlarga aytilgan. Ular yarim doira yoki oval shaklda bo'lgan. Qadimgi Yunonistonda teatr binosi yarim doira shaklida qurilgan, aniqrog'i tomoshabinlar o'tiradigan yarim doira shakliga ega maydon zinapoyasimon o'rindiqlardan iborat bo'lgan. Eng pastdagi maydonchada esa tomoshalar ko'rsatiladigan sahnalar joylashgan. Mana shunday yarim doirasimon teatrning ikkitasini birlashtirganda o'rtada kattagina doirasimon yoki oval shakldagi arena (maydon) – amfiteatr paydo bo'ladi. Amfiteatr so'zining tarjimasi «ikki teatr» yoki «ikkita tomonli teatr» ma'nosini beradi. Amfiteatrlarning shifti bo'lmagan.





Kolizey o'z o'rindiqlariga 50 ming tomoshabinni sig'dira olgan. O'rindiqlar qatori to'rt bosqichli bo'lib, birinchi qatorda imperator va senatorlar, yuqoriroqda – rim zodogonlari, yanada yuqoriroqda – oddiy fuqarolar, yo'qsillar, ozod qilingan qullar, eng yuqorida, ustunlar ortidagi galereyalarda qullar o'tirishgan.


Bo'yiga 180 va eniga 156 metr o'lchovli ulkan ovalsimon binoni sovigan lavadan paydo bo'ladigan tuftoshli bloklar orqali qalashtirib bino qilingan. Yarim doira gumbazlar esa beton va g'ishtlardan qurilgan. Kolizey markazida 54x86 metrli o'lchamdagi **arena** joylashgan. «Arena» atamasi lotinchada «qum» degan ma'noni beradi. Negaki, maydonda o'tkaziladigan janglarda oqqan qon yerga yutilib ketishi uchun uni qum bilan qoplashgan.

Ha, qadimgi rimliklar xush ko'radigan tomoshalar g'oyatda qonli edi. Bu tomoshalar gladiatorlar jangi, jinoyatchilarning qatli va ularni turli yirtqich hayvonlarga emak qildirishlardan iborat edi. **Gladiatorlar** deb tomoshabinlarga o'z kuch-mahorati va vaxshiligini ko'rsatib olqish olishga intiladigan jangchilarni atashardi. Ular ko'pincha o'zaro, gohida hayvonlar bilan jang qilib tomosha ko'rsatishardi. Bu tomosha janglari ko'pincha bir tomonning o'limi bilan nihoyasiga yetgan. Kolizey arenasida bir vaqtning o'zida 3 ming juft gladiatorlar jang o'tkazardi.

Nasroniylik dini paydo bo'lishi bilan ko'pxudolikka sig'inuvchi rimliklar uchun yangi tomosha xili – yangi dinga topinuvchi xristianlarni yirtqich hayvonlarga yem qildirish sahnalari ham yo'lga qo'yilgan edi.

Kolizey rasman me'mor Filaviy amfiteatri deya atalib, Kolizey, ya'ni «koloss yaqinida bunyod etilgan katta bino» ma'nosidagi atama bilan bu binoning yonida Rim imperatorining ulkan haykali – koloss joylashgani uchun shunday nomlangan.

BUYUK SEVGI YODGORLIGI



Toj Mahal – islomiy me'morchilik yodgorligidir. Maqbaraning gumbazi masjidga xos, atrofida muazzinlar azon aytib namozga chorlovchi to'rt minora bo'y cho'zgan

Bir paytlar Hindistonni buyuk mo'g'illar sulolasi, to'g'rirog'i mo'g'il va turk xoqonlarining davomchilari bo'lgan Boburiylar sulolasi boshqarishgan. 1627-yili taxtga **Shoh Jahon** (dunyo hukmdori) o'tiradi. Hukmdor ko'plab harbiy g'alabalarni qo'lga kiritgan bo'lsa-da, bunday shon-shavkatlar tarix bag'riga singib ketdi. Hukmdor o'z rafiqasi Arjumand bonuni g'oyatda sevar edi. Shohga turmushga chiqqach, unga Mumtoz Mahal yoki **Toj Mahal** (ya'ni «Saroy toji») unvoni berildi. Latofatli Mumtoz Mahal shohga 14 farzand tug'ib beradi va o'n beshinchi farzandini dunyoga keltirayotgan paytda vafot etadi. Suyukli rafiqasidan ayrilgan shoh Mumtoz Mahalga atab muhtasham maqbara qurdirishga qaror qiladi.


Shunday qilib, Hindistonning o'sha davrdagi poytaxti **Agra** shahrida qurilish ishlari boshlanib ketadi. Bu qurilish 1630-yildan 1652-yilgacha, naq yigirma yildan ortiq vaqt mobaynida davom etadi. Jamna daryosi bo'yida besh gumbazli, o'rtadagi bosh gumbaz va uning atrofida yana kichikroq to'rt gumbazli ibodatxona bunyod etiladi. Eng katta



gumbazning balandligi 74 metrغا yetadi. Uzoq paytgacha Toj Mahal Hindistonning eng baland inshooti bo'lgan. Maqbaraning to'rt tomonida to'rtta minora qad rostlaydi, favvorali bog'lar yaratiladi, old tomoniga esa zilol suvli katta hovuz barpo qilinadi. Tiniq suvda maqbaraning aksi jilvalanib turadi. Maqbara devorlari yarim shaffof oq marmar bilan qoplanib, unga rang-barang tabiiy shisha va qimmatbaho toshlardan naqshlar tushiriladi.

Bu muhtasham obidaning me'mori kim bo'lganligi aniqmas. Taxminlarga ko'ra, qurilishning boshida fors me'mori **Ustod Iso** turgan. Shoh Jahon Jamna daryosining qarama-qarshi qirg'og'ida o'ziga atalgan yana bir shunday maqbarani qora marmardan qurdirishni niyat qilgan. Ammo, bu orzu orzuligicha qolib ketdi. Qarigan imperatordan omad yuz o'girdi, to'ng'ich o'g'li otasidan taxtni tortib oldi. So'nggi sakkiz yil davomida Shoh Jahon uy qamog'i tarzida saroyda yashab, uning derazalaridan rafiqasi Mumtoz Mahalga atab qurdirgan maqbaraga termulib yashadi. Shoh Jahon olamdan o'tganidan so'ng uning qizi va sodiq mulozimlari uni qayiqda daryoning nargi sohiliga oib o'tishib, izzat-hurmat bilan rafiqasining yoniga, Toj Mahalga dafn etishdi.

Shoh Jahon qahrli va shijoatli hukmdor edi. U yoshlik paytidayoq otasi Jahongirni taxtdan ag'darishni niyat qilgandi. Jahongir o'g'linining bu harakatini kechiradi. Vaqti kelib, Shoh Jahon taxtga o'tirganidan so'ng, unga inilari va boshqa qarindoshlari tahdid qilmasligi uchun ularni yo'q qilish yo'liga o'tadi. Ammo bu ham uning mutlaq hukmdor bo'lib qolishiga yordam bermaydi: taxtni o'g'li Avrangzeb otasi tirikligidayoq tortib oladi.



*Maqbara
ichidagi
Mumtoz
Mahalning
qabrtoshi*

ISO MASIH HAYKALI

Janubiy Amerikaning ajoyib shaharlaridan biri Rio-de-Janeyro to mamlakatning markazida alohida yangi poytaxt – Brazilia shahri qurilmaguncha uzoq paytlar Braziliyaning poytaxti bo‘lib keldi. Atlantika okeani qo‘ynida qad ko‘targan Rio ajoyib sohillari, zamonaviy ko‘ko‘par binolari, ko‘hna me‘moriy yodgorliklari (ularning eng keksasi – **San-Bentu cherkovi** XVII asrda qurilgan) bilan mashhur. Ammo, uning eng diqqatga sazovor monumenti – Iso Masih haykali yangi mo‘jizalar yettiligiga kiritildi.

Iso Masihning muhtasham haykali shahar va yaqin-atrofdagi eng baland joy – **Korkuvadu**

(704 metr) tog‘i tepasiga o‘rnatilgan.

Tog‘ tepasiga ulkan haykal o‘rnatish g‘oyasi o‘n

to‘qqizinchi asrdayoq paydo

bo‘lgan edi. Ammo, haykal o‘rnatiladigan joyga ilk tamal toshi 1922-yilda – Braziliya mustaqiligining yuz yilligida (ungacha mamlakat Portugaliyaning mutamlakasi edi) qo‘yildi. Haykalning poydevorini qurish ishlari 1926-yilga kelib boshlandi.

Haykalni yaratish vazifasini fransuz haykaltaroshi **Pol Landovskiga** topshirishadi. Haykaltarosh Parijda Iso Masihning gipsdan quyilgan boshi va qo‘llarini tayyorlaydi, so‘ngra kema orqali Braziliyaga yuboradi. Bu namunalarga

ko‘ra haykaltarosh hamda quruvchi-

me‘morlar toshdan bosh va qo‘llarni yo‘nishadi. Yana toshlardan Isoning gavda qismini bo‘lak-bo‘lak holda yo‘nib chiqishadi. Ushbu bo‘laklarni navbati bilan Korkuvadu tog‘i tepasiga ko‘tarib chiqishadi.

*Monumentning
balandligi
38 metr bo‘lib,
uning poydevori
8 metrni tashkil
etsa, haykalning
balandligi
30 metrga yetadi*

Bu ishlarga braziliyalik me'mor Eytor da Silva Koshta rahbarlik qilgandi. 1931-yilda haykalning dabdabali ochilish marosimi o'tkaziladi. Nasroniylik dinida Xritos deb ataladigan Iso Masihning haykali sovun toshidan yo'nilgan bo'lib, anchagina yumshoq bu xomashyo tabiat ta'siri: yomg'ir, shamol, harorat o'zgarishlariga chidamlidir. Shahar uzra yuksaklikda qad ko'targan haykal juda uzoq-uzoqlardan ham ko'rinib turadi. Iso Masih qo'llarini keng yozganча shahar ahlini duo qilayotgandek, ularni balolardan muhofaza qilayotgandek taassurot qoldiradi. Haykalni yaqindan ko'rmoqchi bo'lganlar Korkuvadu tog'iga **funikuler** deb ataluvchi kanatli yo'ldan chiqib borishlari lozim.



Mamlakatning yangi poytaxti, Braziliya shahri loyihasi xristianlar butini yoki qanot qoqayotgan qushni eslatadi

Haykal muallifi Pol Landovski Iso haykali o'rnatilganidan o'ttiz yil o'tib vafot etadi. Shunisi qiziqki, barcha Rio-de-Janeyro ahli sevadigan va g'ururlanadigan bu haykalni kelib ko'rish uchun haykaltarosh biror marotaba Braziliyaga tashrif buyurmagan ekan. Ba'zan braziliyaliklar monumentning asl bunyodkori Eytor da Silva Koshta bo'lgan deb aytishadi.



YEVROPA

Ona-yerimizning ajoyib yodgorliklari, g'aroyib maskanlari yettitagina yoki o'n to'rttagina emas. Zaminning turli qit'alarida joylashgan o'nlab, yuzlab, minglab qadamjolari dunyo mo'jizasi deya atalishga loyiq. Bunga ishonch keltirish uchun sizlar bilan dunyoning turli taraflariga tasavvur yordamida sayohat qilib chiqamiz. Bu sayohatni Yevropa qit'asida boshlash arafasida uning orol-davlati – Buyuk Britaniyaga, uning bir qismi bo'lgan Angliyaga qo'nib o'tamiz.



TUMANLI ALBION


Buyuk Britaniyani shoirona tarzda «Albion» deb ham atashadi. Bu mamlakatning qadimiy xalqi bo'lmish Kelt tilida «albion» atamasi «tik, tog'li orol» ma'nosini beradi. Bu nom lotinchasiga «albus», ya'ni «oq» degani bo'lib, orolning oq oxaktoshli qoyalariga nisbat berilgan bo'lishi ham mumkin. Orol tabiati aksariyat paytlari tuman bilan qoplangani uchunmi uni yana «Tumanli Albion» deb ham atashadi.

Britaniyaning eng qadimgi dunyo mo'jizalaridan biri **Stounxenj** – ochiq osmon ostida, ulkan o'tloq ustiga aylana bo'ylab qalab chiqilgan ulkan toshlardan iborat. Bronza davriga oid bu inshoot qanday maqsadlarga xizmat qilgan? Balki u observatoriya vazifasini bajargandir? Balki xudolarga sig'iniladigan maskan bo'lgandir...

Buyuk Britaniyaning poytaxti London – yer yuzidagi eng ko'hna shaharlardan biridir. Bu yerdagi Temza daryosi qirg'og'ida qachonlardir **Tauer** qal'a-



Suratning chap tarafidagi odamlarni tosh bo'laklariga solishtirib ko'rganingizda Stounxenj qanday ulkan toshlardan bunyod etilganini tushunib olasiz



Londonning eng muhtasham cherkovi – Avliyo Pavel ibodatxonaidir. U me'mor K. Ren tomonidan 1710-yilda qurib bitkazilgan. Ibodatxona ichida «shivir galereyasi» mavjud bo'lib, uning boshlanishida devorga shivirlangan so'zni 32 metr narida, devorning oxirida unga qulog'ini qadab turgan kishi bemalol eshita oladi.


qasri qurilgan edi. Tauer avval-boshda qirol dam oladigan qarorgoh edi, keyinchalik qamoqxonaga aylantirilgan. Londonning tarixiy markazi – Siti hozirgi kunda ishbilarmonlar kvartalidir. Sitidan





g'arbroqda **Vemtminster abbatligi**, uning yonida esa muhtasham **Vestminster saroyi** joylashgan. 1065-yilda asos solingan abbatlikda ingliz monarxlariga toj kiydirish marosimi o'tkaziladi. Shuningdek, bu yerga buyuk shaxslar dafn etiladi. Vestminster saroyida Angliya parlamenti majlislari o'tkaziladi. U me'morlar Ch. va E. Berri tomonidan 1840–1868-yillar davomida qurib bitkazilgan.

Vestminster saroyining sharqiy tarafida mashhur Big-Ben (Katta ben) minorali soatlari joylashgan



DON KIXOTNING VATANI



Ispaniya Yevropaning janubiy g'arbida, Pireneya yarimorolida joylashgan. Qadimgi davrlarda keltiber qabilalari istiqomat qiladigan bu hududlarni rimliklar bosib olishga harakat qilishgan. Juda katta qiyinchilik bilan bu yerlar zabt qilinganiga qaramay qabilalarning ozodlikni sevadigan qismi bo'lgan basklar o'z mustaqilligini, urf-odatlarini va o'ziga xos madaniyatini saqlab qolishga muvaffaq bo'lishgan. VIII asrlar boshida Pireney yarimorolini mavrlar (arablar va berberlar) bosib olishdi va besh asr davomida o'z hukmlarini o'tkazdilar. Arab an'analari ispan madaniyatiga, xususan me'morchiligiga katta ta'sir ko'rsatdi. Misol uchun, Ispaniyaning eng diqqatga sazovor qadamjosi – G'arnota-Grenadada mavritan hukmdorlari tomonidan qurilgan. **Algambra** saroyiga me'morlik qilgan ispan me'mori Gaudi ishlarida ham mavritan uslubining ta'sirini kuzatish qiyin emas.

Altamir g'ori devoridagi ushbu buqaning tavsiri bundan 40 ming yil oldin yaratilgan

1875-yilda **Altamir** g'ori devorida olamshumul tasvirlar topilgan edi: devorlarga qizil va sariq tuproq hamda ko'mir yordamida turli jonvorlarning tasvirlari tushirilgan. Hayratlanarlisi shundaki, ushbu qoyatosh tasvirlari juda qadimgi, aniqrog'i bundan

qirq ming yillar oldin, naq tosh asrida yashagan qadimgi odamlar tomonidan ishlangan ekanligi aniqlandi.

XVII asrda ispan rohib-qiroli Filipp II ham saroy, ham ibodatxona vazifasini bajaradigan **Eskorial** qarorgohini qurishga qaror qiladi. Kulrang-moviy granitdan qurilgan



Ispan adibi M. Servantes Don Kixot – devonavash hamda oliyanob ritsar haqidagi romanini yozgandi. Yaxshilik, mardlik, rahm-shafqat g'oyalarini qadrllovchi va kerak paytida bu yo'lda kulguli ko'rinishdan ham qo'rqmaydigan Don Kixot dunyo adabiyotining sevimli qahramoniga aylandi.

ushbu muhtasham inshootlar silsilasining markazidan Avliyo Lavrentiy ibodatxonasi joy oldi. Qirol o'zining harbiy g'alabalariga ushbu avliyoni homiy deb bilar edi.

Tarixiy Kataloniya viloyatining poytaxti – **Barselona** timsolini ko'p jihatdan me'mor Antonio Gaudi ijodi belgilab berdi. Uning Kasa, Mila, Kasa Batlo kabi g'aroyib uylari, Guelb saroy-bog' ansambli kabi inshootlar shular jumlasidandir. Gaudining mashhur inshooti – qurilishi 1884-yilda boshlangan Avliyo Oilasi (ispanchasiga **Sagrada Familia**) ibodatxonasi me'morning fojiali o'limi tufayli tugallanmay qolgandi. Hozirgacha vaqti-vaqti bilan mazkur inshootni qurish davom ettirilmogda.



*Sagrada Familia nomli
Barselona ibodatxonasida
hali-hanuz qurilish ishlari
davom etmoqda*



QADIMGI GERMANLAR YERI



Insoniyat tarixi tongida Yevropada istiqomat qilgan **german qabilalari** bilan qadimgi rimliklar uzoq paytgacha urush olib borishlariga to'g'ri kelgan. Qadimgi germanlarning avlodlari yashaydigan Markaziy Yevropa hududlarida bir necha asrlar davomida urushlar davom etgan. Urushlar, qabilalarning ko'chishi oqibatida turli davlatlar paydo bo'lib, ular yana yo'qlikka uchragan. Shu tariqa dunyo mo'jizalariga da'vogarlik qiladigan shaharlar, ibodatxonalar, qal'alar bunyod etilgan, vayron etilmaganlari bugungi kungacha yetib kelgan.

Germaniyaning qadamjolari orasida gotik uslubida qurilgan ibodatxonalari alohida o'rin tutadi. Pastak binolar orasida ko'kka bo'y cho'zgan gotik cherkovlari, mahalliy aholining ta'riflashicha, kishida xuddi Xudo bilan yuzlashishga intilayotgandek taassurot qoldiradi. Mashhur **Kyoln ibodatxonasining** balandligi 157 metr! Ushbu ibodatxonaning qurilish XIII asrda boshlanib, XIX asrga kelibgina yakunlangan.



XIX asrda Bavariya alohida qirollik edi. 1864-yilda o'n sakkiz yoshli orzumand va romantik Lyudvig II uning qirol bo'lganidan so'ng, o'z do'sti bastakor R.Vagnerning operalari dekoratsiyalariga o'xshagan, o'zining bolalik orzusi – tog'larda ertakdagidek saroylar qurishga qaror qiladi. Bu saroylarning eng ajoyibi esa **Noyshvanshtayn** («Yangi oqqush qoyasi») bo'lib, Vagner operasining qahramoni oqqush-ritsar Loengrin sharafiga bunyod etilgan.

Gotika – o'rta asrlar oxirida paydo bo'lgan uslubning o'ziga xos jihatlari yuksaklikka intilish, yengillik, tik (vertikal) chiziqlarning ustunligi bilan xususiyatlanadi.



Zamonaviy Germaniyaning orasta, xuddi o'yinchoqlarni eslatadigan rang-barang shaharlarini havas bilan sayr etarkansiz, bundan bir necha o'n yil oldin ular yer bilan bitta bo'lgan ahvolga tushib qolganligiga ishingingiz kelmaydi. 1945-yilda, nemis fashizimi ustidan qozonilgan g'alabagacha va undan so'ng ko'plab bombordimonchiliklar tufayli **Drezden, Gamburg** kabi shaharlar yer yuzidan deyarli yo'q qilib tashlangan, yirik harbiy hujumlar tufayli Berlin xaroba holda qo'lga kiritilgan edi. Germaniyaning mehnatkash xalqi yo'qotilgan ko'plab muhtasham inshootlarini qaytadan tiklashga muvaffaq bo'ldi. Eng muhimi, bo'lib o'tgan talato'plardan kerakli xulosa chiqarildi: urush – har qanday go'zallikni yo'q qiluvchi, har qanday mavjudlikni zavolga uchratuvchi eng katta yovuzlikdir.

Noyshvanshtayn saroyi bo'yinlari uzun oqqushni eslatadi



*Aleksandr Gyustav Eyfel
(1832-1923)*

O, FRANSIYA! O, PARIJ!

Fransiya – Shimoliy dengizdan to Oʻrtayer dengizigacha choʻzilgan hududni egallagan ajoyib davlatdir. Bu yerlarda odamlar qadimdan istiqomat qilib kelishadi. Qadimgi paytlarda bu yerlarda kelt (gall) qabilalari, keyinchalik german qabilalari sirasiga kiruvchi franklar istiqomat qilishgan. Franklar paydo boʻlgan yangi mamlakatga oʻz nomlarini berishdi. Shunga qaramay fransuzlarning koʻpchiligi oʻzlarini gallarning avlodi deb bilishadi. Fransiya nomi «xoʻrozlar mamlakati» degan maʼnoni beradi.

Fransiyaning poytaxti **Parij** Sena daryosi sohillarida yashagan pariz qabilalarining qadimgi turar-joylari – Lyutetsiya oʻrnida paydo boʻlgan. Zamonaviy Parij – ulkan shahar boʻlib, unda turli-tuman xalqlarning tili va anʼanalari, meʼmoriy uslublari omuxtalashib ketgan maskan hisoblanadi. Amerikalik yozuvchi Ernest Xemenguey Parij haqidagi kitobini «Sen bilan doim birgalikdagi bayram» deya nomlagan edi. Bu yerda boʻlganlar Parijning oʻzigagina xos ruhiga guvoh boʻladi. Qadimiy obidalar va zamonaviy shod-xurramliklarning uygʻunligi kishini maftun etadi. Qadimgi ibodatxonalardan – **Sen-Jermen de Pari, Notr-Dam**, yaʼni Bibi Mariya ibodatxonasi dunyo ahliga maʼlum va mashhur. Ushbu maskanda qirollikning XVI–XVIII asrlarda qurilgan saroylari



1889-yilda muhandis Aleksandr Gyustav Eyfel tomonidan bunyod etilgan minora bugungi kunda Parijning timsoliga aylandi

(ulardan biri **Luvr** bo'lib, hozir unda dunyodagi eng mashhur san'at muzeyi joylashgan) va eng zamonaviy inshootlardan bo'lmish Pompidu markazi (bu binoda zamonaviy san'at muzeyi mavjud) bilan yonma-yon joylashgan.

Fransiyaning eng uzun daryosi – **Luara vodiysida** XV–XVII asrlarda qirollar, shahzodalar va badavlat zodagonlarning qarorgohlari qurildi.

Blua, Shomon, Shambor, Shenonso, Ambuz kabi ko'plab saroylar va shu turdagi qadimgi inshootlar me'morchilik uslubini o'zlarida saqlab kelmoqda. Ular Fransiya tarixida yuz bergan ko'plab qiziqarli tarixiy voqealar bilan bog'liq ekanligi bilan ham qadrlil. Bu binolarda qo'llanilgan me'moriy yechimlar betakrorligi tufayli Luara vodiysini «Fransiyaning gavhari» deb atashadi.

Parijning diqqatga sazovor qadamjolari sirasiga mashhur Eyfel minorasi ham kiradi. U 1889-yilda qurilgan va ko'plab parijsliklarning noroziligiga sabab bo'lgan edi. Negaki, minora shahardagi boshqa inshootlar orasida begonadek tuyulardi. Ammo, oradan vaqtlar o'tib, uning to'rga o'xshash konstruksiyasining go'zalligi, tik qomatiga o'rganib qolishdi va endi bu inshootsiz Parijni tasavvur qilish mushkul.

*XIV asrda qurilgan
Syulli-syur-Luar
qal'asining devorlari
Fransiya qahramoni –
lashkarboshi, hur qiz
Janna D'Arkni ko'rgan...*



YEVROPANING BALAND TOG'LARI



*Gannibal
Rim qo'shinlari*

*Monblan
(fransuzchasiga «Oq tog'») balandligi 4807 metr bo'lib, u Yevropaning eng yuksak cho'qqisidir. Monblan G'arbiy Alpda, Fransiya va Italiya sarhadlarida joylashgan*

Yevropa va Osiyo bitta materik – Yevroosiyoda joylashgan ikkita qit'adir. Ular orasidagi shartli ajratish sarhadini unchalar baland bo'lmagan Ural tog'lari va Kavkazning serbulut cho'qqilaridan shimolroqda joylashgan Kumo-Manich pasttekisliklari ajratib turadi. Shunday ekan, Yevropaning eng baland tog'lari deb uning markaziy qismida joylashgan **Alp** tog'larini tilga olishadi. Qadimgi kelt tilida «alp» so'zi «baland tog'» ma'nosini beradi.

Alp tog'lari Italiya, Fransiya, Shveytsariya, Lixtenshteyn, Avstriya, Germaniya va Sloveniya kabi yetti davlat hududini o'zida birlashtiradi. Bu tog'larda ko'plab tarixiy janglar yuz bergan. Eramizdan avvalgi 218-yilda Alp dovonlaridan oshib o'tgan karfagen lashkarboshisi Gannibal Rim qo'shinlariga kutilmaganda orqa tomondan zarba bergan. 1799-yilda rus armiyasi A.V. Suvorov qo'mondonligida Alp tog'laridan oshib o'tib, dushmanlarga kutilmaganda hamla qilgan va g'alaba qozongan.



Yevropadagi eng baland bu tog'larining senbernar nomli it zotiga aloqasi bor. Sen Bernar ibodatxonasi rohiblari yetishtirgan bu it zoti insonning eng yaqin yordamchisiga aylandi. Ushbu ibodatxona baland tog'lar bag'rida joylashgani uchun, har galgi qor bo'ronidan so'ng rohiblar bo'ronda adashgan kishilarga yordam berish uchun qidiruv-qutqaruv ishlariga



Alp yonbag'ridagi shaharcha yuksak tog' cho'qqilari manzarasida xuddi o'yinchoqqa o'xshab qoladi

chiqqanlarida, ularga ergashgan itning yordamiga tayanishgan. Shundan keyin bunday itlarni maxsus tayyorlashga qiziqib qolishdi. Bu it zotini ibodatxona nomidan kelib chiqib – **senbernar** deya nomlashdi. Fransiyada ushbu ibodatxonaning 40 ta odamni qutqarib qolishda qatnashgan Barri laqabli itiga haykal ham qo'yishgan.

Avvallari kishilar tog'larga ehtiyoj tug'ilganidagina ko'tarilishardi. Bugungi kunlarda esa odamlar tog'larga hordiq chiqarish va ko'ngil yozish uchun ham chiqishadi. Bizning asrda Alp tog'lari eng gavjum kurortlari bilan nom chiqardi. Chang'i uchish, snoubordlarda sirpanish, quyoshda toblanish va tog'larning go'zal tabiatiga mahliyo bo'lish kishilarni o'ziga chorlagani chorlagan.

Baland cho'qqili tog'larni zabt etuvchi sportchilarni «alpinistlar» deb atashadi. Chunki bu sport turi ilk bor mana shu tog'larda paydo bo'lgan. Alpinistlar foydalanadigan uchi o'tkir, uzun dastakni ham «alpenshtok» deb atashadi.

QADIMGI RIMLIKLARNING VORISLARI

Italiyani «ochiq osmon ostidagi muzey» deb ham atashadi. Bu yerda har qadamda tarixiy obidalarga duch kelasiz. Ularning eng diqqatga sazovori – Kolizey amfiteatri. Bundan tashqari, Rimda forumlar, terma, ya’ni hammomlar, ibodatxonalar, shu jumladan mashhur **Panteon** (eramizning ikkinchi yuz yilligida qurilgan doirasimon ibodatxona) xarobalari yaxshi saqlanib qolgan. Italiya nafaqat qadimiy davrlarda, shu bilan birga o’rta asrlarning Uyg’onish davrida yaratilgan san’at na’munalari bilan ham diqqatga sazovor. Misol uchun qiyshaygan **Piza minorasi**, aniqrog’i Piza qo’ng’iroqxonasini olsak, uni qura boshlagan me’mor Bonanno binoning birinchi bosqichini qurib bo’lganidan so’ng uning qiyshiq ekanligini sezib qoladi. O’z xatosini tushinib yetgan me’mor jazo va sharmandalikdan qo’rqib Fransiyadan qochib qoladi. Bu voqea XII asrda yuz

*Rialto ko'prigi Venetsiyadagi
eng enli Katta kanal uzra
qurilgan*



Santa-Mariya del Fore gumbazi 1420–1436-yillar mobaynida me'mor Filippo Brunelleski tomonidan qurib bitkazilgan. Hech qanday tayanchlarsiz yopilgan gumbaz me'morchilik va muhandislikning bebaho asariga aylandi. Florensiyaliklar Brunelleski gumbazini dunyo mo'jizalaridan biri deb hisoblashadi.




bergandi. Uni yana ikki asr qurishda davom etishdi. Qo'ng'iroqxonona sakkiz qavatli bo'ldi, qiyshayish farqi esa 5 metrga yetdi. Hozirgi kunda qo'ng'iroqxonani saqlab qolish bo'yicha turli loyihalar ishlab chiqilgan. Muhandislarning hisob-kitoblariga ko'ra, maxsus tayanchlarsiz ham qo'ng'iroqxonona hali yana anchagacha qad tiklab tura olarkan.

Venetsiyaning o'rnida bir necha yuz yillar avval yarimorol sohillariga yaqin joydagi bir necha kichik orollarda yashaydigan odamlarning kulbalari mavjud edi. Baliqchilik, savdo ishlari yurisha boshlagach, odamlar orollar orasiga ko'priklar qurib, shahar paydo qilishdi. Yer maydoni yetmaganidan suvga ulkan qoziqlar qoqqancha turar-joy va boshqa inshootlar qura boshlashdi. Hozirgi Venetsiyada kanallar ko'cha vazifasini bajaradi. Bu kanallarda kichik bandargohlar orasida qatnaydigan daryo tramvaylari yo'lovchilari va ularning yuklarini tashiydi. Kanallarning ikki tarafida ajoyib turar-joylar – **palatssolar** qo'r to'kib turadi.

«**Florensiya**» so'zining ma'nosi «gullayotgan» deganidir. Uni Italiyaning eng go'zal shahri deb bilishadi. Bu shahardagi **Santa-Mariya del Fore**, Mikelanjeloning ijodi bo'lmish **David haykali** (uning asli muzeyga olib ketilgan bo'lib, bu yerdagi maydonda uning nusxasi qo'yilgan) badavlat shaharliklarning uylari va palotssolari kishini o'ziga rom etadi. Agar shaharga tepadan qaralsa, shahar tomlariga qadimdan yopib kelinadigan sariq cheripitsalardan ko'z qamashib ketadi.



BUYUK ELLADA



• Bundan bir necha ming yil muqaddam Bolqon yarimoroli va O'rtayer dengizidagi orollarda yashagan qadimgi yunonlar o'zlarini ellinlar, mamlakatlarini esa Ellada deb atashgan. Hozirgi Gretsiya hududida ko'plab antik yodgorliklar saqlanib qolgan.

Qabriston, aniqrog'i maqbaralar qurilgan joy ham ajoyib san'at asarlari qad ko'targan joyga aylanishi mumkin. Afina nekropolida (ma'nosi «o'liklar shahri») juda ko'plab qabrtoshlar va haykallar saqlanib qolgan. Ulardagi bo'rtma va o'yma bezaklarda botir jangchilar va go'zal ayollar tasvirlangan. Marhum yoshini yashab o'tganidan so'ng ham uning qabrtoshida yoshlikdagi ko'rinishi tasvirlangan. Yunonlar hech qachon maqbara devorlarida marhumlarning keksalikdagi qiyofasini tasvirlashmagan.

Qadimgi davrda **Krit orolida** mohir dengizchilar, ustalar, rassomlar istqomat qilishgan. Bundan 3,5 ming yil avval poytaxt Knossda ko'plab uzun yo'laklari, tantanalarga mo'ljallangan zallari, muhtasham xonalardan iborat g'aroyib saroy qurilgan edi. Uni ko'rgan yunonlar saroyini labirint, ya'ni undan chiqib ketishning iloji bo'lmagan inshoot deya atashgan. Ular bunday joyda qonxo'r Minotavr – tanasi odamniki, boshi ho'kizniki bo'lgan maxluq yashaydi, deya ishonishgan.



Parfenon – ko'hna Afinadagi eng bosh ibodatxona bo'lib, shaharning homiysi bo'lgan Afina Pallada sharafiga qurilgan.


Uzoq paytgacha bu gaplarni uydirma deb kelishgan. Ammo, yigirmanchi yilga kelib ingliz arxeologlari **Knoss saroyini** kovlab topishdi. Ha, o'sha labirint haqiqatan ham mavjud bo'lgan ekan. Yunon afsonalarida bu labirintni Ikarining otasi Dedal qurganligi ham tilga olingan.



Knoss saroyining ichki devorlarini ajoyib rangtasvir namunalari – freskalar qoplagan

Gretsiyaning poytaxti Afina shahrida ajoyib me'moriy majmua – **Akropol** juda yaxshi holatda saqlanib turibdi. «Akropol» yunonchasiga «oliy shahar» degan ma'noni bildiradi. Shaharning aholi yashaydigan qismidan teparoqdagi yassi qoyalar ustiga ibodatxonalar, ulug'vor haykallar bunyod etilgan.

Afinaning bosh ibodatxonasi **Parfenon** bo'lib, u milodgacha o'tgan V asrda me'morlar Iktin va Kallikrat tomonidan qurilgan. Yunonlar uni dunyodagi eng ulug'vor va go'zal inshoot sifatida dunyo mo'jizalari qatorida sanashgan. Parfenon ikki ming yilgacha yaxshi holatda saqlanib kelgan, faqat XVII asrda yuz bergan zilzila tufayli biroz shikastlangan. Parfenondan sal beriroqda undan sal kichikroq **Erexteyon** ibodatxonasi joylashgan.



Bu ibodatxonaning uchta, bir-biriga sira o'xshamaydigan kirish yo'llari mavjud. O'sha kirish yo'llaridan birining tomini ustunlar emas, go'zal qizlar ko'rinishidagi oltita haykal (bunday haykallar **kariatidalar** deb ataladi) ko'tarib turishadi.



SLAVYAN MAMLAKATLARI



*Dubrovnikni xorvatlarning
Adriatikadagi javohiri
deb atashadi*

bo'lsa, Janubiy Yevropada Bolgariya, Ruminiya, Serbiya va Chernogoriya, Bosniya va Gersegovina, Xorvatiya, Sloveniya, Makedoniya joylashgan. Ushbu mamlakatlarning turmush tarzi, urf-odatlar, madaniyati bir-biriga yaqin, ularda ham diqqatga sazovor ko'plab qadamjolar mavjud.

Xorvatlarning **Dubrovnik** shahri serqoya Adriatika qirg'og'ida o'rta asrlarda qad tiklagan. Uni o'z asl qiyofasini saqlab qolgan shahar deb hisoblashadi. Shaharning eski qismini ikki qatorli mustahkam qal'a devorlari o'rab turadi. Tosh yotqizilgan yo'laklar turli haykallar va favvoralar bilan bezatilgan

maydonlarga olib boradi. Ko'rkam saroylar chiroyli ibodatxonalar bilan qo'shnichilikda yonmayon joylashgan.

Slavyanlar nasroniylik dinini o'zlarining janubiy qo'shnilar – Vizantiyadan qabul qilib olishgan. Shundan so'ng, o'rta

Bolgariyaning turli burchaklarida pravoslav cherkovlar va monostirlar saqlanib qolgan. Ularning orasida X asrda asos solingan Rila ibodatxonasi ham bor. Poytaxt Sofiyada esa XVIII asrda qurilgan Avliyo Sofiya ibodatxonasi shahar nomiga asos solgan.

asrlarda Kiyev Rusi va boshqa slavyan davlatlarida ibodatxonalar qurilishi avj oldi. XI asrda Rusning o'sha davrdagi poytaxti Kiyevda **Kiev-Pechora lavrasiga** asos solingan edi.

Uning ruhoniylari xuddi Qadimgi Rimdagi rohiblar kabi g'orlarda yashashar, yer ostidan kelyalar va ibodatxonalar qazishardi.

O'sha paytlardan boshlab knyaz Dono Yaroslav Vizantiya poytaxti Konstantinopoldagi Ayo-Sofiya cherkoviga o'xshab ketadigan **Sofiya ibodatxonasini** qurdirdi.

Dunyoning eng go'zal shaharlaridan biri – Chexiya poytaxti Pragaga VIII–XI asrlarda asos solingan.

O'rta asrlarning ajoyib me'moriy yodgorligi – **Avlyo Vit ibodatxonasi** hisoblanadi. U XIV asrda qurilgan. Shaharning zamonaviy diqqatga sazovor inshootlaridan biri esa «**Raqs tushayotgan uy**» bo'lib, bir-biriga yonboshlab turgan ikki uy xuddi raqs tushayotgan juftlikni eslatadi. Uni me'mor Geri 1995-yilda foydalanishga topshirgan.



Praganing Valtava daryosiga qurilgan Karl ko'prigi qirol Karl IV davrida qurilgan. Mazkur ko'priki me'mor Parlerj tomonidan XIV asrda foydalanishga topshirilgan. Ko'prikning uzunligi 520 metr. XVII asrdan boshlab uni haykallar bilan bezashgan




YEVROPA VA OSIYO UYG'UNLIGI



Rossiya davlati ikki qit'a – Yevropa va Osiyoda joylashgan. Bu mamlakat dunyodagi eng katta hududga ega – g'arbda Boltiq dengizidan to sharqda Tinch okeanigacha, shimolda Arktikadan to janubdagi Kavkaz tog'larigacha bo'lgan maydonni egallagan. Bu mamlakatda yuzdan oshiq millatlar turli tillarda so'zlashadilar. Bu yerda turli-tuman madaniyatlar uyg'unlashib ketgan.

Moskvadagi Qizil maydonda joylashgan Vasiliy Blajenniy ibodatxonasi. O'ng tomonda esa Spask minorasi

Moskvadagi **Qizil maydonning** asl ma'nosi qizil emas, go'zal so'zidan olingan bo'lib, shaharning tarixiy markazi hisoblanadi. Bu qadimiy maydon o'z atrofiga juda ko'p tarixiy yodgorliklarni birlashtirgan. Bu maydon **Moskva Kremili** devorlariga qadalib boradi. Maydonning janubiy qismida XVI asrda qurilgan **Vasliy Blajenniy** ibodatxonasi qad tiklab turibdi. Bu ikki qadamjo dunyoning yangi yetti mo'jizasi ro'yxatiga kiritilishiga ozgina yetishmadi, xolos. Shunga qaramay, moskvaliklar o'z qadamjolarini g'oyatda qadrlaydilar.





Uch yuz yil avval asos solingan **Sankt-Peterburg** Niva daryosi bo'ylarida qo'r to'kib turibdi. Bu shaharni haqli ravishda Shimoliy Palmira yoki Rossiyaning madaniy poytaxti deb ham atashadi. Uni nafaqat Niva daryosi, shu bilan birga ko'plab boshqa kichik daryolar, kanallar kesib o'tadi. Bu yerda kemalar o'tishi uchun ochilib-yopiladigan ulkan ko'priklardan tashqari kichikroq, biroq nihoyatda go'zal ko'priklarning son-sanog'i yo'q. Qishki saroy, Ermitaj va ko'plab boshqa binolarning ulug'vorligi, go'zalligi ta'rifiga til ojiz.

Rossiyada ko'plab betakror tabiat durdonalari mavjud. Bularga Kamchatkada joylashgan harakatdagi **volqonlar, geyzerlar**, dunyodagi eng chuqur chuchuksuvli **Baykal ko'li**, osmono'par tog'larni kiritish mumkin. Rossiyadagi eng yuksak **Elbrus** tog'i Kabardino-Balkariyada joylashgan.

Dunyo mo'jizalari qatoriga Moskva metrosini ham qo'shish mumkin. Bu inshoot dunyodagi eng go'zal yerosti temiryo'li ekanligiga shubha yo'q. Metro bekatlarini yerosti saroylari deb bejizga aytishmaydi. Novoslobodsk, Kropotinsk, Mayakovskiy kabi o'nlab metro stansiyalari chinakam san'at asarlaridir.

Kavkaz tog'larida joylashgan Elbrus tog'i Rossiyaning eng yuksak cho'qqisi hisoblanadi. Uning balandligi 5642 metr



OSIYO



Osiyo mamlakatlari ko'pasrlik tarixga ega. Bir necha mingyillik tamaddun tarixi davomida bu yerda son-sanoqsiz saroylar va ibodatxonalar qurildi, qonli janglar davom etdi, ulkan savdo yo'llariga asos solindi. Ko'plab tillarning, xalqlarning, madaniyatlarning aralashib ketishi natijasida yuksalgan bu zamin bilan yaqindan tanishish istagida bo'lgan sayyohlarni o'ziga jalb etdi. Osiyo qit'asida joylashgan davlatlarning tarixi va madaniyati o'zining betakrorligi bilan ajralib turadi.




YEVROPA VA OSIYO ORASIDAGI KO'PRIK

Rossiyadan tashqari yana bitta davlat – Turkiya dunyoning ikki tomoni – Yevropa va Osiyoni o'zida birlashtiradi. Turkiyaning **Istambul** shahri o'ziga xos taqdirga ega: eramizdan avvalgi VII asrda greklar tomonidan asos solingan Vizantiya shahri borib-borib Konstantinopol nomini olib, Vizantiya imperiyasining poytaxtiga aylandi. Keyinroq Usmoniylar imperiyasining poytaxti va 1923-yilgacha Turkiya respublikasining poytaxti bo'lib turdi. Istambul shahri Yevropa va Osiyoni ajratib turuvchi Bosfor bug'ozining ikki sohilida quloch yoya boshladi. 1970 yilga kelib bu ikki sohil ko'prik bilan birlashtirildi. Endi odamlar piyoda dunyoning ikki qit'asi orasida bemaol borib-kelaverish imkoniyatiga ega bo'ldi.



*Qadimgi Istanbul
minorasi*

*Ayo-Sofiya cherkovi atrofidagi
to'rt minorasi bilan*





Istambulda nasroniy olamining eng qadimgi va ulug'vor cherkovi **Ayo-Sofiya** (VI asrda qurilgan) hamon saqlanib turibdi. Markaziy ulkan gumbaz undan kichikroq yarim gumbazlar, kichik gumbazlar shunday ustalik bilan o'rab chiqilganki, go'yo cherkov bir paytning o'zida ham quloch yozib, ham yuksakka intilayotgandek taassurot uyg'otadi. Uning markaziy gumbazi yarim doira derazalar uzra parvoz qilayotgandek tuyuladi. Ibadatxonaning ichi ziyoratga kirayotganlar



o'ylaganidan ham kengroq ekanligi bilan hayratga soladi. XV asrda cherkov masjidga aylantirildi va uning yoniga to'rtta minora qurildi. XX asrda Ayo-Sofiya muzeyga aylantirildi. Restavratorlar devorladagi suvoqlar ostidan vizantiya davri mozaikalarini topishdi.

Pamukkaleni

(turkchada «paxta qal'a») turklar g'urur bilan dunyoning sakkizinchi mo'jizasi deb atashadi. Ushbu shahar yaqinidagi tog'dan oqib tushayotgan qaynoq buloqlar suvi tarkibidagi tuz cho'kindilari oppoq terassalar hosil qiladi. Xuddi suv o'z-o'zidan muzlab qolayotgandek tuyuladi. Bular na muz va na qor bo'lib, karbonat kalsiy cho'kindilaridan tashkil topgan tog' rudasi – travertin ana shunday ko'rinish oladi.

Kiyevdagi Sofiya ibodatxonasi aynan Ayo-Sofiya cherkoviga o'xshatib qurilgan. Kiyev Rusi xristianlikni Vizantiyadan qabul qilib olganlaridan so'ng o'z ibodatxonalarini ham ularnikiga o'xshatib qurishgan.



*Pamukkale
(«Paxta qal'a»)*



MUQADDAS ZAMIN



Azadorlik devorining toshlari orasidagi tirqishlariga yahudiylar Xudoga o'z iltijolari yozilgan qog'ozchalarni qistirib qo'yishadi

Isroilning eng katta shahri – **Iyerusalim** (Quddus) yer yuzidagi eng ko'hna shaharlardan biri bo'lib, uning yoshi 3,5 ming yilga teng. Iyerusalim uch dunyoviy din vakillari – yaxudiylar (iudeylar), nasroniylar (xristianlar) va musulmonlar uchun muqaddas makon hisoblanadi. Bu yerni ziyorat qilish uchun dunyoning turli taraflaridan ziyoratchilar kelib turishadi.

Iudeylarning muqaddas **Azadorlik devori** – rimliklar tomonidan vayronaga aylantirilgan Iyerusalim ibodatxonasini qurshab turgan devorning omon qolgan g'arbiy qismidir. Eramizgacha bo'lgan X asrda shoh Sulaymon **Ibodatxonalar tog'ida** ilk ibodatxonani qurdirgan edi. Eramizgacha bo'lgan VI asrdan to yangi milodiy asrgacha uni bobilliklar bir necha marta vayronaga aylantirishadi. Eramizgacha bo'lgan I asrda u qayta tiklanadi. Eramizning birinchi yuz yilligida shoh Irod tomonidan u yana qayta tiklanib, kengaytiriladi. Shoh Irod ibodatxonani saqlab qolish va maydonini



kengaytirish maqsadida uning atrofiga devor tiklatadi. Oradan yuz yilcha o'tib, rimliklar uni batamom vayronaga aylantirishadi va yaxudiylarni qul sifatida bu yerlardan haydab quvishadi. Ibodatxonani o'rab turgan devorning bir qismigina qoladi, xolos. Shu qolgan qismni «Azadorlik devori» deya nomlashadi.

Butun dunyo xristianlari uchun Iyerusalim eng muqaddas maskan bo'lib, aytishlaricha Iso Masihning yerdagi hayoti mana shu yerda nihoyasiga yetgan ekan. Xudoning tobuti deb nomlangan ibodatxonaga ziyoratchilar tinmay kelib turishadi. Ushbu ibodatxona Iso xochparchin qilingan Golgofa tog'ida, qatldan so'ng uning jasadı yotqizib ketilgan va, nasroniylik dini ta'limotiga ko'ra, qayta tirilib, osmonga uchib ketgan g'orning ustiga bunyod etilgan. Bu yerdagi birinchi cherkov 335-yilda Muqaddas Yelena tomonidan qurilgan. Rivoyat qilishlaricha,


Yelena Iso mixlangan xoch yog'ochining qoldiqlari topilgan joyga cherkov qurdirgan. Oradan o'tgan vaqt mobaynida bu cherkov bir necha marotaba yonib ketgan, so'ng qayta tiklangan, kengaytirilgan.

1810-yilda u oxirgi marotiba qayta ta'mirlandi va hozirgacha shu holatda

saqlab turilibdi. Cherkovning markazida

Kuvukliya – marmar minora tiklangan bo'lib, u aynan Iso yotqizilgan g'or tepasiga bunyod etilgan. Rivoyat qilishlaricha, har yili nasroniylarning ulug' bayrami – Pasxa arafasida Kuvikliyada yorug'lik beradigan, ammo kuydirmaydigan muqaddas olov paydo bo'lar emish. Aytishlaricha, bu muqaddas olov paydo bo'lmagan yili go'yoki qiyomat qoyim yuz berarmish.

Musulmonlarning Quddusdagi muqaddas qadamjolari – Al-Aksa va Qubbat-as-Saxra («Qoya gumbazi») masjidi bir paytlar Iyerusalim ibodatxonasi qad tiklagan Ibodat tog'ida qurilgan. Uni VII asrda Iyerusalimni zabt etgan arablar bino qilishgan.



Xudoning tobuti deb nomlangan ibodatxona

QADIMIY TARAQQIYOT ZAMINI

Hozirgi Iroq va Eron davlatlari hududida, qadimgi ikki daryo: Yevfrat va Tigr oralig'ida yer yuzidagi ilk davlatlar paydo bo'ldi. O'sha paytlarda bu yerlar Mesopotamiya (yunon tilida «ikki daryo oralig'i») deb atalgan. Bu joylarni dunyo tamadunining ilk beshigi deb atashadi. Ikki daryo oralig'idagi diqqatga sazovor joylar chindan ham dunyoning haqiqiy mo'jizalaridir.

XIX asr oxirida Iroq poytaxti Bag'doddan 80 kilometr masofada, Yevfrat daryosi chap qirg'og'ida arxeologlar qazuv ishlarini olib borishdi. Ular ulkan qal'a devorlari qoldig'i, o'ziga xos ibodatxonalar vayronalari, ulug'vor saroylarning xarobalarini topishdi. Buning ajablanadigan joyi yo'q, axir bu yerlarda bir paytlar qadimgi **Bobil** shahri joylashgan edi! Bobilda esa qadimgi dunyoning yetti mo'jizalaridan biri – Semiramidaning osma bog'lari joylashgandi. Bu haqdagi ovoza butun dunyoga tarqaldi. Bobilning darvozalaridan biri iloha Ishtarga bag'ishlangandi.



*Ishtar darvozalari
(qayta tiklangan
ko'rinishi)*

Afsonaviy maxluq – sIRRUSH ajdarni eslatadi: uning tangachalar bilan qoplangan shoxli boshi ilonniki, old panjalari sherniki, orqa panjalari – burgutnikiga o'xshaydi. Shedular esa ulkan buqalarni, soqolli yuzi esa odamnikini eslatib, boshiga toj kiydirilgan. U o'zida buqalarning qudrati va inson aqlini jamlagan edi.

Ulkan **Ishtar darvozasining** g'ishtin arkalari moviy, sariq, oq va qora koshinlar bilan qoplangan bo'lib, ular yassi bo'rtma bezak: sherlar, buqalar va afsonaviy maxluqlar – siruslar bilan bezalgan. Darvozaning balandligi 14 metr, uzunligi esa 10 metr edi. Bu darvozalarning nusxasini Iroqda va Berlindagi Pergamon muzeyida ko'rish mumkin.

Eronning janubi-g'arbida qadimgi fors imperiyasi poytaxti – **Perespol** vayronalari joylashgan. Perspol eramizdan oldingi IV asrdayoq Fors shohiga qarshi jang qilgan lashkarboshi makedoniyalik Aleksandr qo'shinlari tomonidan vayron etilgandi. Arxeologlarni bu yerda g'aroyib topilmalar kutib turgandi. Shoh Doriy (yoki Doro) saroyi qoldiqlarini tadqiq qilgan olimlar darvozalar qo'riqchisi bo'lgan qanotli buqalar haykallariga duch kelishdi. Ular Misrdagi sfinkslarga o'xshab ketardi. Har bitta buqaning beshta oyog'i bo'lib, unga oldidan yoki yon tomondan qaralganida ular yurib ketayotganga o'xshab tuyulardi. Ushbu buqalar shedular deb atalgan bo'lib, ular qo'riqchi ruhlar vazifasini bajargan, insonning hayotiy kuch-quvvati timsoli bo'lishgan.



Qanotli Shedu – kuchli, oqil va qo'rqmas



OSMONOSTI IMPERIYASI

Osmonosti imperiyasi hisoblangan Xitoy nomi qadimdan sayyohlarni hayratga solib keladi. Bu yerga ilk marta tashrif buyurgan yevropalik sayyoh Marko Polo ko'rgan-kechirganlaridan bu mamlakatga maftun bo'lib qolgan edi. U yurtiga qaytib borib qog'oz pullar, o'zi yonuvchi «qora tosh» – ko'mir haqidagi hikoyalariga hamyurtlari sira ishonishmagan. Aynan xitoyliklar birinchi bo'lib qog'oz, porox, chinni, kompasni ixtiro qilganlari, Buyuk Xitoy devori va qanchadan-qancha ulug'vor saroylarni qurganlarini eslasak... Xitoydek qadimiy mamlakatning o'zi boshdan-oyoq dunyoning eng katta mo'jizasidir.

Xitoy poytaxti bo'lmish Pekin, xitoycha talaffuzdagi Beytszin (ma'nosi «shimoliy poytaxt») o'zining ko'plab diqqatga sazovor joylari bilan mashhur. Dunyodagi eng katta maydon – o'ziga bir paytning o'zida bir million odamni sig'dira oladigan

Minglab terrakota askarlari orasida bir-biriga o'xshaydigani topilmaydi

Tyananmin maydoni, «Yopiq shahar» – **Gugun**

shular jumlasidan. Gugun dunyodagi eng katta saroy hisoblanadi. VIII asrning birinchi yarmida ushbu saroy qurilishiga bir million nafar quruvchilar jalb qilingan. Ushbu majmua 9999 ta xonaga ega. Saroy Pekinning markazida joylashgan, ammo unga oddiy avom xalqning kirishi ta'qiqlangan. Saroy baland devor hamda atrofi suv to'ldirilgan handaq bilan o'rab olingan. Saroyga faqat

Samoviy sokinlik darvozasi orqaligina kirish mumkin bo'lgan. Saroy ikki qismdan iborat bo'lib, tashqi

saroyda imperator davlat ishlari bilan mashg'ul bo'lgan, ichki saroyda esa uning son-sanoqsiz oila a'zolari istiqomat qilishgan.

1974-yilda Xitoy dunyoni yana bir mo'jiza bilan

hayratga soldi. Shensi provinsiyasi dehqonlari sug'orish kanalini qazish paytida **terrakota** (sopol) dan yasalgan odam bo'yi keladigan ko'plab askarlar haykallariga duch kelishdi. Yer ostidan kovlab olingan bu askar haykallari Buyuk Xitoy devori qurilishini boshlab bergan imperator Sin Shixuandi qabrini qo'riqlashlari uchun birgalikda ko'milgan ekan. Bu sopol haykallar eramizdan avvalgi uchinchi asrda yasalgan.




*Sinyandyan
(«Mo'l hosil uchun
qurilgan ibodatxona») –
samoviy ibodatxonaning
bosh inshooti*

Xitoy poytaxtining ulkan xiyoboni o'rtalig'ida Tyantan («Samoviy ibodatxona») nomli ibodatxonalar majmuasi joylashgan. Bir paytlar imperator (o'zini samolar o'g'li deb hisoblovchi) bu ibodatxonaga yilda ikki marotaba kelib, toat-ibodat marosimini o'tkazib ketar edi. Samoviy ibodatxonada osmonni anglatuvchi aylanalar va Yerning timsoli bo'lgan kvadrat shakllar bir-biriga uyg'unlashib ketadi.



G'AROYIB YARIMOROL




Hindiston – o'zining ekzotik tabiati, aholisining turmush tarzi, betakror hayvonot dunyosi bilan sayyohlarni sehrlab qo'yadigan mamlakat. Hindlarning ko'pchiligi jonvorlarni muqaddas hisoblaganidan faqat o'simlik mahsulotlarinigina yeyishadi. Ayniqsa, sigirlarni, maymunlar, fillarni juda ulug'lashadi. Ular tabiatni ham muqaddas sanashadi (masalan: muqaddas **Gang** daryosi, nilufar gullari). Samoni yaratgan Braxmaga, samoni qo'riqlovchi Vishnuga, dunyo tartibini buzishga

Tanjavur (Tamiland shtati, Janubiy Hindiston) shahridagi Brixadeshvara ibodatxonasi. IX asr me'morchiligi. Hindlar shahardek ulkan ibodatxonaning qa'rida xudo yashiringan deb ishonishgan



urunuvchi Shivaga atalgan ibodatxonalarda sig'inadilar.

Hind ibodatxonolari san'atning oliy namunasi bo'lib, toshlarda turli ilohlar, afsonaviy sahnalar tasviri, hayvonlar surati aks etadi. Hindlar sansaraga, ya'ni ruhlarning ko'chishiga ishonishadi: inson savobli hayot kechirsa, uning ruhi o'limidan keyin o'zidan ko'ra oliyroq kastaga taalluqli jonga ko'chib o'tadi, deb hisoblashadi.



Sanchi shahridagi Stupa (buddaviylik) ibodatxonasi eramizgacha o'tgan III–II asrlarda qurilgan.

Hindlar qadimdan odamlarni turli kasta – tabaqalarga bo'lib chiqishgan. Bu kastalar bir-biriga aralashib ketmasligi uchun bir tabaqa vakili boshqa tabaqa vakili bilan nikoh qurishi ta'qiqlab qo'yilgan. Ular hattoki yonma-yon ovqatlanishi ham mumkin emas edi.


Zamonaviy Hindistonda barcha teng huquqli bo'lsa-da, an'analar hamon o'z kuchini ko'rsatmoqda.

Hindiston tabiati juda o'ziga xos, uning odam oyog'i yetmaydigan hududlari esa yaxshi o'rganilmagan.


Tabiatshunos olimlar uchun bu yerda qilinadigan ishlar hali ko'p.

Hindistonning shimoliy kengliklari Himolay tog'lariga taqalgan. Bu tog'lardan oqib tushadigan Hind va Gang daryolari hosildor vodiylar paydo qiladi. Kiplingning Maugli haqidagi «Changalzor qonuni» kitobi mana shu yerlar haqida hikoya qiladi. Hindistondagi yo'lbarlar, fillar, bug'ma ilonlar, maymunlar, tovuslar, panteralar kabi noyob jonvorlarni saqlab qolish uchun 40 dan oshiq milliy qo'riqxonalar tashkil qilingan.

Eramizdan avvalgi VII asrda Hindistonda shahzoda Gautama (Budda) yashagan va yangi din — buddaviylikka asos solgan. Buddaviylik dini Hindistonda ming yilcha gullab-yashnadi, ammo keyinchalik yangi din indiuzim tomonidan siqib chiqarildi.



AFRIKA



Afrikani aholisining tani, ya'ni terisi qoraligi uchun «Qora qit'a» deb ham atashadi. Olimlar yer yuzida birinchi odamlar Afrikada, uning sarhadsiz tropik savannalarida yashagan deb hisoblashadi. Afrika kattaligi bo'yicha Yevroosiyodan keyin ikkinchi o'rinda turuvchi materikdir. Har narsaga qiziquvchi sayyohlarni bu yerda ko'plab mo'jizalar kutib turadi: shimoliy hududlardagi ibodatxonalarining ming yillik xarobalari, ekvatordagi o'tib bo'lmas changalzorlar, shu bilan birga, mazkur qit'ada vulqonlar va sharsharalar, tog'lar va tubsiz jarliklar, g'aroyib o'simliklar dunyosi hamda ekzotik hayvonot olami mujassam.



FIR'AVNLARNING QADIMGI YURTI

Gizada, zamonaviy Misr poytaxti Qohiraning shundoqqina biqinida shu kungacha yetib kelgan qadimgi piramidalar saqlanib qolgan. Qadimgi dunyoning yetti mo'jizalaridan faqat ulargina saqlanib qolgan, xolos. Hamma narsa vaqtdan, vaqt esa ehromlardan qo'rqadi, degan ibora bejiz aytilmagan. Ammo, ehromlar fir'avnlarning davrining yagona yodgorligi emas. O'tib ketgan Qadimgi Misr hukmdorlarining ulug'vor ehromlarini toshdan yasalgan sirli maxluq qo'riqlab turadi.

Ushbu ulkan maxluqning tanasi sherni eslatsa, boshi odamniki. Boshidagi klaft – Qadimgi Misrda faqat fir'avnlargina o'raydigan ro'mol mavjud. Bu **Katta sfinks**. Bu haykal eramizdan avvalgi XXVIII asrda bunyod etilgan.

Ko'pxudolikka sig'inuvchi misrliklar tog' jinslarini o'yib, ulkan inshootlar yaratishgan.


Misr iyerogliflari (rasm-xatlari) – o'tmishning yechib bo'lmas sirli mo'izasi hisoblanadi. Iyerogliflarni ko'plab ibodatxonalar va qabrtoshlarda ko'rish mumkin. Misr yozuvlarini XIX asrning birinchi yarmida fransuz olimi J. F. Shampolon ilk marta o'qib chiqishga muvaffaq bo'ldi.


Katta sfinks





Shu tariqa yillar, asrlar davomida Nil daryosi sohillarida ibodatxonalar majmuasi paydo bo'ldi. Eramizgacha o'tgan ikki ming yillikda Fiva shahrida (hozirda bu joy shu yerdagi qishloq nomi bilan **Karnak** deb yoki **Luksor** ham deb yuritiladi) Misrning bosh ibodatxonasi joylashgan edi. Ibodatxonaga ikki tomoniga o'rnatilgan





sher tanali, qo'y boshli afsonaviy maxluqlarning ulkan haykallaridan iborat **sfinkslar** **hiyoboni** oralab boriladi. Fivadagi ushbu sfinkslar, ibodatxonalar xarobalari, qoyali ibodatxonalar, fir'avn ehromlari haligacha saqlanib turibdi.



AFRIKA TABIATI



Afrikaning shimolida yer yuzidagi eng ulkan qumli hudud **Sahroi Kabir**, janubroqda esa savannalar, undan ham janubroqdagi ekvator sernam doimiy yashil

o'rmonlar joylashgan. **Ekvator** Afrikani deyarli teng ikkiga bo'lib turadi, bu yerlardagi o'simliklar va hayvonlar ham boshqa qit'alarnikidan farq qiladi.


Afrika tabiatining eng diqqatga sazovori Zambezi daryosidagi **Viktoriya sharsharasi**dir. Bu sharshara balandligi 108 metr, kengligi 1700 metr. U tik qoyadan o'tilib tusharkan juda kuchli shovqin va ko'rinishi bulutga o'xshash suv zarralarini hosil qiladi. Mahalliy aholi uni «gumbirlovchi tutun» deya ataydi. Bu sharsharani 1855-yilda ilk bor ko'rgan ingliz sayyohi Livingston uni qirolicha Viktoriya sharafiga shunday nomlagan.

*Viktoriya
sharsharasi*




Afrika dashtlari bo'lmish savannalar antilopa, buyvol, zebra, jirafa, karkidon, fil kabi o'txo'r hayvonlar saltanatidir. Son-sanoqsiz bunday o'txo'rlar to'dasi ularni yeb kun ko'radigan arslon, gepard, leopard va sirtlon kabi yirtqichlarni bu yerlarga jalb qiladi. Afrikada ko'plab ekzotik xasharotlar yashaydi. Suvaraklarning olis qarindoshi bo'lgan **termitlar** to'dasi balandligi 3-5 metr chiqadigan ulkan uyalar qurishadi.

Afrikaning g'aroyib o'simliklar dunyosini **baobab** daraxtisiz tasavvur qilish qiyin. Bu daraxtning tanasi 25 metrgacha yetishi mumkin. **Litops** nomli g'aroyib o'simlikning yonidan o'tgan odam uni ko'rmasligi, aniqrog'i payqamasligi mumkin. Chunki, Janubiy Afrika cho'llarida uchraydigan bu g'aroyib o'simlik qurg'oqchilik paytlari xuddi toshga o'xshaydi. Litopsning yer yuzidagi qismi ikkita bir-biriga qo'shilib ketgan barg bo'lib, ular orasida kichkina yoriq bo'ladi. Yomg'ir yog'ib o'tganidan so'ng bu yoriqdan g'uncha paydo bo'ladi va chiroyli gullar ochiladi. Shartli ravishda aytsak, toshlar gullaydi.



Jirafa



Afrikada odamsimon maymunlarning shimpanze va gorilla turlari yashaydi. Ko'rinishidan haybatli va baquvvat bo'lganlari bilan gorillalar o'txo'r hayvonlardir. Yovvoyi tabiatda ularning odamzotdan bo'lak deyarli dushmani yo'q.

AFRIKA JANUBI



XIX asrda yevropalik sayyohlar Janubiy Afrikaning Zambezi va Limpopo daryolari oralig'ida toshlardan qurilgan shahar vayronalariga duch kelishadi. Uni **Katta Zimbabve** (mahalliy tilda «Tosh uylar») deya atashadi. Avvaliga, uni bir necha ming yillar avval, Yevropa yoki Osiyodan kelib qolgan ko'chmanchilar qurgan deb taxmin qilishadi. Uni hatto Injilda nomi keltirilgan malika Savskaya nomi bilan ham

atashadi. Ammo, olib borilgan tadqiqotlar bu shahar ming yilcha muqaddam mahalliy shon xalqi tomonidan qurilganligi ma'lum bo'ldi. IX asrda baland tepalik uzra «akropol» – katta toshlardan iborat yopiq oval shaklidagi devor ko'tarilib, uning ortiga kulbalar, timsoh va qushlar tasviri tushirilgan ustunlar, toshdan qurilgan inshootlar qad rostlagan.



Katta Zimbabve shahri xarobalari

Taxminan XVI asrda Katta Zimbabveni mahalliy aholi allaqanday noma'lum sabablarga ko'ra tark etadi. Shahar atrofidagi yerlar hosilsizlikka uchragan bo'lib, aholi ochlikka giriftor bo'lgan, deya taxmin qilish mumkin. Balki shahar qurish, qurol-aslaha yasash uchun zarur bo'lgan foydali qazilmalar tugab qolgandir. Shahar aholisi o'rtasida yuqumli kasallik tarqalgan bo'lishi ham mumkin. Xullas, bular bizga noma'lum.

Konussimon minora ularning ichida eng diqqatga sazovori edi. Taxmin qilishlaricha, mahalliy aholi vakillari mazkur minoraga qarab topinishgan bo'lsalar kerak. Chunki uning ichiga kirishning iloji yo'q, minora kubsimon toshlardan qad rostlagan.

Afrikaning janubiy hududidagi **Yaxshi Umid burni** ikki – Atlantika va Hind okeanlari uchrashadigan joyda joylashgan. Bu joyni

1488-yilda dengizchi B. Diash kashf qiladi va unga Bur deya nom beradi. Ammo Hindistonga dengiz yo'li ochish maqsadida ushbu ekspeditsiyani jo'natgan Portugaliya qiroli Juan II bu joyni Yaxshi Umid burni deya nomlaydi. Portugaliyaliklarning umidi 1497-yilda ro'yobga chiqadi. Vasko Da Gama bu yerlarni aylanib o'tib, Hind okeaniga chiqadi va Hindistonga yetib boradi. Bu joylardan tungi osmonning janubiy yarimsharidagi samo jismlarini bermalol kuzatish mumkin. Shuning uchun bu yerga yevropalik astronomlar yangi yulduzlarni o'rganish niyatida borishgan.



Yaxshi Umid burni



AMERIKA



Amerika qit'asi dunyoning bir qismi sifatida o'ziga ikki materik - Shimoliy va Janubiy Amerikani birlashtirgan. Bu qit'ani ochgan dengizchilar unga «Yangi dunyo» deb nom berishgan. Yangi dunyoning mo'jizalari ham yangicha va betakror edi. O'ziga xos tabiat, o'ziga xos qadimiy taraqqiyot obidalari, bu yerlarga ko'chib kelgan yevropaliklar yaratgan yangi shaharlar...



NYU-YORK – TOSHDAN IBORAT CHANGALZOR

Amerika Qo‘shma Shtatlarining eng katta shahri – Nyu-York. AQSHning poytaxti esa – Vashington hisoblansa, Nyu-York uning ishbilarmonlik, siyosiy va madaniy markazidir. Bir necha millionli aholiga ega ushbu megapolis Shimoliy Amerikaning sharqiy qirg‘og‘i, Gudzon daryosining Atlantika okeaniga quyilish joyida joylashgan. Nyu-Yorkka tutash sohilda AQSHning timsoliga aylangan, 46 metr balandlikka ega **Ozodlik haykali** o‘rnatilgan. Uning o‘ziga xos tarixi bor. «Dunyoga yorug‘lik eltuvchi ozodlik» haykali fransiyalik haykaltarosh Frederik Ogyust Bartoldi tomonidan ishlangan. Misdan yasalgan haykalni 314 qismga ajratib, ummon orqali yetkazib kelishadi va Nyu-Yorkka kirishdagi orolga 1886-yilda, AQSH mustaqil davlat deya e‘lon qilingan Mustaqillik deklaratsiyasi qabul qilinganligining yuz yilligi munosabati bilan o‘rnatishadi.



*Ulug‘vor Ozodlik haykali
boshidagi tojning ichida
atrofni tomosha qilishga
mo‘ljallangan
maydoncha bor*



Shaharning katta qismi turli orollarda joylashgani uchun bu yerda ko'priklar juda ko'p. **Bruklin ko'prigi** XIX asrda qurilgan bo'lib, ushbu osma ko'prik shaharning Bruklin va Manxetten hududlarini birlashtiradi. Uning uzunligi 1825 metr. Ko'prik qurilganiga 150 yildan oshgan bo'lsa-da, u hamon ishonchli va mustahkam.



Bruklin ko'prigi

Yangi dunyoning ochilish sanasi deb 1492-yil 12-oktyabr – Kolumb kemalari Amerika qirg'oqlariga yaqin masofadagi San-Salvador orollariga langar tashlagan kun belgilangan. Kolumb Yer sharini aylanib o'tib, Hindistonga kelib qoldim deya xato o'ylagani uchun mahalliy aholini «hindular» deb ataydi. Hozirgacha Amerika qit'asining tub aholisi shunday ataladi.





Nyu-Yorkni «tosh changalzor» deyish mumkin. Osmon-falakka bo'y cho'zgan binolar shaharning o'ziga xos timsoli. Ular ayniqsa Manxettenda juda ko'p. 1920–1930-yillarda qurilgan **Empayr-Steyt-Bilding** (1931) yoki Kraysler (1930) binolari bunga misoldir.

«Kraysler» firmasiga qarashli 70 qavatli ko'kpar binoning yakuniy qismi



BUTUN QIT'A BO'YLAB

Los-Anjelosda dunyoga mashhur Gollivud – AQSH kino sanoati markazi joylashgan. O'ziga xos bu «orzular fabrikasi»dagi hiyobonlardan birini shon-shuhrat hiyoboni deb atashadi: bu yerdagi yo'lakga ko'plab mashhur kinoaktyorlar, rejissyorlar, xonandalarning nomi bitilgan yulduzlar tasviri tushirilgan.

Nyu-York AQSH sharqiy qirg'og'ining ulkan shahri bo'lsa, uning qarama-qarshi tarafida joylashgan g'arbiy sohillarini o'sha vaqtlarda «Yovvoyi G'arb» deya atashgan. Ammo bu yerlar ham taraqqiyotda Sharqiy sohillarni tezda quvib yetib, o'z mo'jizalarini yaratishga tushdi. **Michigan** ko'li sohilida AQSHning ulkan shaharlaridan biri – **Chikago** joylashgan. Nyu-York emas, aynan Chikago osmono'par binolar qurilishini boshlab bergan. Shimoliy Amerikada kattaligi bo'yicha uchinchi o'rinda turuvchi Michigan ko'li Buyuk ko'llar va mayda suv havzalari majmuyiga kiradi. Yangi dunyoning **Buyuk ko'llar** (Yuqori, Guron, Michigan, Ontario Yeri) Yangi Dunyoning o'ziga xos tabiat yodgorliklaridir.

Amerika shtatlaridan bo'lmish **Janubiy Dakota** tog'larida ajoyib monument mavjud: haykaltarosh

*San-Fransiskodagi
«oltin darvoza» ko'prigi*



J.G. Borglem tog'dagi qoyalarga to'rt AQSH prezidentlari: J.Vashington, T. Jefferson, A. Linkoln, T. Ruzvelt portretlarni o'yib ishlagan. Bu ish 1926-yildan 1941-yilgacha davom etgan.

Tinch okeani sohilida AQSHning yana bir ulkan hamda go'zal shaharlari San-Fransisko va Los-Anjelos joylashgan. Materikdan Oltin darvoza qo'ltig'i orqali ajralib turgan yarimorolda qurilgan San-Fransisko ahli qo'ltiq uzra qurilgan ko'priklari bilan faxrlanishadi. 1937-yilda qurilgan «**Oltin darvoza**» ko'prigining umumiy uzunligi 3100 metr, asosiy qismining uzunligi 1281 metr.

Los-Anjelosdan uzoq bo'lmagan Anaxaym shahrida 1955-yilda «**Disneylend**» ko'ngilochar parki ochilib, u nafaqat bolalarning, shuningdek kattalarning ham sevimli maskaniga aylandi. «Disneylend»da Uolt Disney multfilmlarining qahramonlari xuddi hayotga ko'chgandek tuyuladi. Parkning timsoli esa hech ham tushkunlikka tushmaydigan sichqoncha Mikki-Mausdir.



Tugallab ulgurilmagan to'rt prezidentga atalgan yodgorlik juda ulkan. Qoyalardan o'yilgan haykallarning balandligi 18 metrni tashkil etadi



HAYRATOMUZ TABIAT



AQSHning janubiy-sharqida, Arizona shtatida mashhur **Katta kanon** (dara) joylashgan. Kolorado daryosi yer sathini o'yib oqishi natijasida unchalar keng bo'lmagan, ammo juda chuqur dara hosil qilgan. Katta kanon 400 kilometrغا cho'zilgan. Uning chuqurligi 1600 metr. Zinapoyasimon dara chetlarini vaqt va shamol yo'nishi oqibatida g'aroyib shakllar: odamsimon, minorasimon, afsonaviy maxluqlarga o'xshashlari paydo bo'lgan.



AQSHning shimoli-sharqidagi Qoyali tog'larda, dengiz sathidan 2 ming kilometr balandlikda **Yellouston milliy parki** joylashgan. Bu yerda o'zidan qaynoq loy otib turadigan loyqali vulqonlar, qaynoq buloqlar

AQSHning «Grand-kanon» (Katta kanon) milliy parki



va juda son-sanoqsiz (3 mingdan ko'p) geyzerlar mavjud. Eng yuksak Ekselsior geyzri 90 metr baladlikka otiladi. Ekselsior unchalar katta bo'lmagan qoyatosh sohillarga ega ko'lning o'rtasida joylashgan. Vaqti-vaqti bilan otilib chiqadigan qaynoq suv va bug' odamlarni hayratga soladi.

AQSHning eng baland tog'li Kolorado shtatida ajoyib Monumentlar Vodiysi joylashgan. Vodiy zaminining yuqori qatlamlari yumshoq jinslardan tashkil topganligi uchun ularni uzoq yillar davomida shamol yo'nishda davom etib, joyida qolgan qattiq jinslardan g'aroyib shakllarga ega tabiat haykallarni paydo qilgan. Balanligi 30 metrgacha bo'lgan bu turli-tuman shakldagi ustunlar bir-biri bilan gaplashib turgan uch opa-singilni, yana biri esa tiz cho'kkan rohiba juvonne, boshqasi katta quloqni («Shamolning qulog'i») eslatadi.

AQSH va Kanada davlatlari sarhadidagi Buyuk Ko'llar tizimiga kiruvchi Niagara daryosida **Niagara sharsharasi** mavjud. Mahalliy hindular qabilasi tilidagi «niakare» so'zi «katta shovqin-suron» ma'nosini beradi. Uning kengligi 1 kilometr. Sharsharaning ikki oqimi (chapdagisi – kanadaniki, o'ngdagisi – AQSHniki) 500 m baladlikdan otilib tushadi. Undan chiqqan shovqin quloqni qomatga keltiradi va suv zarralari xuddi bulut misol ko'kka o'rlaydi.

Shimoliy Amerikaning janubiy-sharqidagi Sonor cho'lida haqiqiy o'rmonlar o'sadi! Bu o'rmonlarga yaqin kelganingizdan keyingina bu daraxtlar, ulkan kaktuslar ekanligini payqaysiz. Bunday cho'llarni kaktusli cho'llar deb atashadi.

Niagara sharsharasi



JANUBIY AMERIKA MO'JIZALARI



*Anxel sharsharasini hindular
Apemey
(Qiz qoshi) deb
atashadi.*

Janubiy Amerika – tabiatning g'aroyib va ajoyib bo'lagidir. Bu yerda osmono'par tog'lar, o'tib bo'lmas changalzorlar, vulqonlar va sharsharalar mavjud. Bu yerda Janubiy Amerikaning g'arbiy sohillari bo'ylab 9 ming kilometr cho'zilgan G'arbiy yarimshardagi eng baland **And tog'lari** yastanib yotibdi (uning eng baland cho'qqisi – Akonkagua 6960 metr).


Janubiy Amerika

davlatlaridan biri – Venesuelada dunyodagi eng baland joydan otilib tushadigan **Anxel sharsharasi** joylashgan. Churun daryosida joylashgan bu sharsharaning balandligi 1054 metr, suvning o'zi esa 979 metr balandlikdan erkin otilib tushadi. Bu kurramizdagi eng baland sharshara hisoblanadi. Uni 1935-yilda osmondan uchib o'tayotgan uchuvchi Xuan Anxel ko'rib qolgan. Ortga qaytishda uchuvchining samolyoti halokatga uchraydi,

Amazonkada maydagina bo'lsa-da, ammo juda ham yovuz baliqlar – piranyalar yashashadi. Ularning jag'i shunchalar mustahkam va o'tkir-ki, mahalliy aholi ulardan qirquvchi asbob sifatida foydalanishadi. Piranyalar galasi bir daqiqada rosmana qo'ydek keladigan kapibara (kemiruvchilarning yirik turi)ni suyaklarigacha tozalab tashlashlari mumkin.

ammo mo'jiza tufayli omon qolgan uchuvchi shu yaqin oradagi pochta bo'limiga yetib boradi va AQSH milliy geografik jamiyatiga o'z kashfiyoti haqida telegramma yo'llaydi. Oradan ko'p yillar o'tgach, Anxel vafot etganida uning hoki bir paytlar o'zi kashf qilgan sharshara uzra sohib yuboriladi.

Janubiy Amerikada kurramizdagi eng sertarmoq va yirik **Amazonka** daryosi oqadi. Uning uzunligi 7 ming kilometr, Atlantika okeaniga quyilayotgan uning qo'ng'ir suvlari quyilish joyidan boshlab 300 kilometr gacha okeanning sho'r suvlariga aralashmay, chuchukligicha qoladi. Amazonkaning bosh irmoqlari baland tog'lardan boshlanadi, keyin u pasttekislik bo'ylab egilib-



Ara
to'tiqushlari

bukilib, doimo yashil tropik o'rmon – selvani oralab oqadi. Amazoniya Selvasini sayyoramizning o'pkasi deb atashadi: bu o'rmonlar o'simliklar tomonidan atmosferaga ajratiladigan kislorodning teng yarmini ishlab chiqaradi.

Janubiy Amerikada faqat shu joyning o'zidagina uchraydigan **endemik** jonivor va o'simliklar ko'p: yalqovlar, chumolixo'r, zirhdorlar, burni yalpoq maymunlar, jaguarlar, tapirlar faqat mana shu materikda uchraydi. Amazoniya o'rmonlarida mittigina o'ynoqi maymunlar uchraydi. Ularning bo'yi 10–30 santimetr, tuslari esa xilma-xil. Qushlarni aytmayisizmi! Ulkan tumshuqli tukanlar, yer yuzidagi eng mayda qushlar – kolibrilar, goatsinlar, odam tovushiga taqlid qila oladigan rang-barang to'tiqushlar ko'plab so'zlarni xotirasida saqlay oladi. To'tiqushlarni bunga o'rgatish bilan hindular qadimdan shug'ullanib kelishgan.

QADIMIY VA ZAMONAVIY SAN'AT



Janubiy Amerikada qadimiy arxitekturaning g'aroyib yodgorliklarini uchratish mumkin. Machu-Pikchu shahar-qal'asidan tashqari Peruning eramizning birinchi mingyilligida asos solingan Kusko shahrida Kolkompat saroyi va **Korikancha Quyosh ibodatxonasi** xarobalari saqlanib qolgan. Qachonlardir ularni mahalliy hindu qabilasi – inklar bunyod etishgan, ispan istilochilari esa ularni batamom vayronaga aylantirishdi. Quyosh ibodatxonasining poydevorlari o'rnida cherkov tikladilar. XX asr o'rtalarida kuchli zilzila tufayli cherkov qulab tushdi va uning vayronalarini tozalash paytida qadimiy ibodatxonaning devorlariga duch kelishdi.

Kuskodan unchalar uzoq bo'lmagan joyda inklarning **Saksauaman** qal'asi joylashgan.

Uning devorlari ulkan xarsanglardan qalab chiqilgan. Qadimgi ustalar qurilish qorishmalaridan foydalanishmagan, ular toshlarni silliqlash bilan ularni bir-biriga zich yotishiga erishganlar.

Inklar mohir zargar ham bo'lishgan: ular tog'larda ko'plab oltin konlarini topganlar va bu metallardan chiroyli bezaklar yasashgan. Ularning ko'pchiligi ochko'z ispan istilochilari qo'lga tushgach, qaytadan eritilib, bu yerlardan olib ketilgan. Omon qolganlarining o'zi, masalan,



*Qadimiy inklar
tomonidan
yasalgan tilla
bezak*


Naska dashtining aholisi qanday qilib dasht yuzidagi shakllarni bu qadar aniqlikda bajarganliklari jumboq bo'lib turibdi. Ularni yaxshilab ko'rish uchun faqat qush kabi ko'kka uchib chiqibgina aniq ko'rish mumkin.

quyosh niqobi go'zalligi va nozikligi bilan kishini hayratga soladi.

Dunyoning haqiqiy mo'jizalaridan biri – Peru janubidagi **Naska** dashtida topilgan ulkan tasvirlardir. Dashtning toshloq sathida ulkan uchburchaklar, spirallar, maymunlar, o'rgimchaklar, qushlar va boshqa jonzodlarning tasvirlari o'yib chiqilgan. Ularning yonida turib bu tasvirlarni payqash qiyin. Buning uchun qushlarday ko'kka uchib, o'sha balandlikdan tomosha qilish mumkin, xolos. Bular nima, o'zga sayyoraliklarga tayyorlangan shartli ramzlarmi? Bu hozirgacha katta jumboq...



Meksika hindularning ehromlariga monand qurilgan Braziliya kafedral ibodatxonasi Iso boshiga kiydirilgan tikanakli chambarning tasviriga o'xshaydi



Braziliyaning yangi poytaxti Brazilia XX asr o'rtalarida maxsus loyiha asosida bunyod etildi. Poytaxtning eng hayratlantirarli inshooti bu **Kafedral ibodatxonadir** (uni me'mor O. Nimeyer loyihlashtirgan).

AVSTRALIYA

Avstraliya – Yer yuzidagi olti materikning eng kichigi hisoblanadi. Janubiy yarimsharda joylashgan ushbu kontinental nomi lotinchada «janubiy yerlar» ma’nosini beradi. Yevropaliklar Avstraliyani XVII asrda kashf etishdi. Bu yerda boshqa joylarda uchramaydigan daraxtlar va jonzodlar mavjud.



KO'ZDAN PANA DUNYO

Avstraliyada g'aroyib jonvorlar – o'rdakburun va yexidna yashaydi. Boshqa sutemizuvchilardan farqli ravishda **o'rdakburun** tirik tug'may, qushlar kabi tuxum qo'yadi.

Yexidnaning bolalari ham tuxumdan paydo bo'ladi va onasining qornidagi maxsus xaltada yetiladi. Bunday «xalta»lar Avstraliyaning boshqa xaltali hayvonlarida ham uchraydi. Ularning eng mashhuri – **kengurular** bo'lib, ular Avstraliyaning timsoli hisoblanadi. Bu materikda yana xaltali quyonlar, bo'rilar, koala ayiqlari ham yashaydi.



O'rdakburun



Yexidna

Eng kichik materikning o'simliklar dunyosi ham o'ziga xos, endemik bo'lib, ularning 90% faqat shu yerdagina uchraydi. Bu yerda palma va paparotniklar eman va qorateraklar bilan yonma-yon o'sadi. Materikning janubi-g'arbi va janubi-sharqi evkalipt daraxtlariga juda boy. Olimlar tomonidan 1878-yilda uchratilgan **shohona evkalipt** planetadagi eng baland daraxtligicha qolmoqda, u hozirgi kungacha 150 metr baladlikka (50 qavatli uyga teng) o'sdi.






Avstraliyani birinchi kashf qilganlar kengurularni ikki boshli g'aroyib maxluqlar deb o'ylashgan



Avstraliya zaminiga ilk qadam bosgan dengizchilar sakrab-sakrab yurgan hayvonlar nimaligini yerli aholidan so'raganlarida, ular: «Kenguru!» («Gapingizni tushunmadik») deyishadi. Sayyohlar esa buni notanish jonivorning nomi deya qabul qilishdi.




Kontinentning markazida dunyodagi eng katta monolit – yaxlit tosh bo‘lagi, aniqrog‘i mahalliy aholi **Uluru** deb ataydigan **Eyrs-Rok** qoyasi mavjud. Bu qoyaning balandligi – 348 metr, uzunligi 2,5 kilometrga teng. Uluru mahalliy aholining eng ulug‘ muqqadas maskanidir. Uning g‘orlarida ming yillardan beri o‘zlarining xudolariga sig‘inib, ibodat marosimlarini o‘tkazib kelishadi. Shu paytgacha ular qoyaning ustiga chiqish tugul, undan biror parchani ko‘chirib olishga jazm qilmaydilar, bu ish ruhlarni g‘azabga keltiradi deya ishonishadi.



Eyrs-Rok qoyasi



«QO'LBOLA» MO'JIZALAR



*Avstraliyalik
aborigenning rasmi*

Avstraliyada bir-biridan g'aroyib xalqlar istiqomat qilishgan. Materikka kelgan yevropaliklar ularni yovvoyilar deb hisoblashgan. Chunki, ularning davlat tizimi bo'lmay, kichik qabilalar holida yashashgan, tirikchiliklari uchun ov qilishgan va o'simlik meva-ildizlarini yig'ishgan. Ular bilan yaqindan tanishganlaridan so'ng ularning hech biri yovvoyi emasligi ma'lum bo'ldi. Materikning tub aholisi o'zlarigagina xos madaniyatini shakllantirgan edilar. Aynan ular otgandan so'ng o'zi qaytib keladigan qurol – **bumerangni** ixtiro qilganlar: agar otilgan qurol o'ljaga tegmasa, parvozini davom ettirgancha to'liq aylana yasagancha ovchining qo'liga qaytib kela olgan.

Bu «yovvoyi»lar mohir rassomlar edi, topilgan suratlar orqali ular odam anatomiyasi, ya'ni tana tuzilishini yaxshi bilganliklarini payqash qiyinmas. Qoyalarda aborigenlar tomonidan chizgan ba'zi odam va hayvon tasvirlarida ichki a'zolar, ustuxonlar aniq tarzda ko'rsatilgani fikrimizni tasdiqlaydi. Xuddi shifoxonada shifokorlar rentgen nurlaridan



foydalanganidek ushbu qadimgi rassomlar ham chizayotgan jonzodini shaffof hoida ko'ra olgan.

Bu tasvirlar keyinchalik «rentgen» usulidagi **suratlar** deb ataldi. Qoyalardagi tasvirlarda ular o'tgan ajdodlari va jonvorlarni chizisharkan (avstraliyaliklar odamlar turli hayvonlardan kelib chiqqaniga ishonishadi), mahalliy aholi dunyoning yaratilishi haqidagi afsonalarini chizib ko'rsatishga harakat qilganini payqash mumkin.

Avstraliyaning Sidney shahrida dunyodagi eng mashhur teatrlaridan biri joylashgan. Nafaqat avstraliyaliklar, boshqalar ham uni dunyoning sakkizinchi mo'jizasi deb sanashadi. Daniyalik me'mor Yorn Uotson loyihasi bo'yicha **Sidney opera teatri** deyarli 15 yil davomida (1959–1973-yillar) quriladi.

1966-yilda me'mor teatr qurilishni yaxshi boshqarmaganligi uchun ayblagan buyurtmachilar bilan arazlashib qoladi va loyihalarni yoqib yuborib, Avstraliyani tark etadi. Chala qolgan ishlarni avstraliyaliklarning o'zlari yakunlashadi. Muallif esa shu bilan o'z ijodi samarasini boshqa ko'rmaydi. Ba'zilarga teatr binosi chig'anoqni, boshqalarga – nilufar gulbarglarini, chag'alay qanotlarini yoki shamol shishirgan yelkanlarni eslatadi. Binoning g'aroyib tomi haqiqatan ham dengizdagi yelkanlarni eslatadi.

Sidneydagi Xarbor-Brij ko'prigi Avstraliya me'morchiligining daho asaridir. Uning yarim kilometrli arkasi Port-Jekson qo'ltig'idan oshib o'tgan. Ko'prikning to'liq vazni — 52 800 tonna.



Sidney opera teatri Port-Jekson qo'ltig'ining shundoqqina sohilida qurilgan



UMMONDAGI OROLLAR



Jahon okeanining beshahad bag'rida katta va kichik, ko'm-ko'k o'simliklarga qoplangan yoki faqat yalang'och qoyalardan iborat, kimsasiz va serjonzod orollar sochilib yotibdi. Katta yerlardan uzilib qolgan ko'plab orollarda chinakam dunyo mo'jizalari deb atashga arziydigan g'aroyib madaniyatlar, qadimiy yodgorliklar saqlanib qolgan.



SIRLI TO'NGAKLAR

Tinch okeaning kengliklaridagi ushbu kichkina orolni birinchi bo'lib dengiz qaroqchisi E.Devis ko'rib qoladi. U orol kordinatalarini noto'g'ri tuzilganligi tufayli bu orolni kashf etish sharafiga gollandiyalik Y.Roggeven muayassar bo'ladi.

1722-yilning aprelida uning ekspeditsiyasi bir guruh mahalliy aholi to'planib turgan kichkina serqoya orolga duch kelib qoladi.



Bu ulkan tosh shakllar mahalliy aholining ajdodlariga atalgan yodgorliklar bo'lib, ular vafotidan keyin ezgu ruhlarga aylanib qolgan, deya rivoyat qilishadi



Buyuk dengizchi Jeyms Kuk orol aholisi bu to'ngaklarni bu yerga qanday o'rnatganlari sirini taxmin qiladi. Boshida ularni katta qoyatoshlardan yo'nganlar, keyin uning yoniga tuproq to'kib, yog'och tirgaklar va arqonlar yordamida tashib kelib, tamal toshlarini asta-sekinlik bilan tik holatda o'rnatganlar.



O'sha kuni yevropaliklar pasxa bayramini nishonlashayotgani uchun bu orolga **Pasxa oroli** deb nom berishadi.

Pasxa oroli planetamizning g'aroyib bir sirini o'zida saqlab kelmoqda. Orolida juda ko'p ulkan qoyatoshli haykallar qad rostlab turibdi – katta-katta boshlar orol sohilidan uzoq-uzoqlarga, okean bag'riga razm solib turishadi. Bu **tosh to'ngaklar** nima uchun bunyod etilgan? Ular mahalliy aholining ilohlari tasvirimi, qabrtoshlarmi, yodgorliklarmi? Orolliklar kelgindi sayyohlarning savollarini javobsiz qoldirshadi.



Yevropaliklar bu to'ngaklarning ostida xazina yashirilgan bo'lsa kerak deb o'ylashadi va ularni ag'darib ham ko'rishadi. Ammo ularning ostidan hech qanday xazina topilmaydi. Ko'plab to'ngaklar va ularning tamal toshlari – **axular** singan-darz ketgan holida sohil bo'ylab sochilganicha qoladi.

Pasxa oroli o'zining baxtiyor kunlarini allaqachon yashab bo'ldi. To'rt asr muqaddam bu yerda hosildor tuproq uzra o'sgan daraxtlardan mahalliy aholi kanoye – qayiqlar yasab, baliqchilik bilan shug'ullanganlar. Ular mohir baliqchilar bo'lishgan. Vaqt o'tib, tuproqli qatlam yuvilib ketishi oqibatida orol yalang'och toshlardangina iborat bo'lib qolgan. Kanoe yasash uchun loyiq yog'ochvop daraxtlar qolmagach, mahalliy aholi ham boshqa orollarni izlab, bu yerlarni tark etishgan. Hozirda tik holatida qolgan xarsang haykallargina bu orolning g'aroyib tarixidan dalolat berib turibdi, xolos.

Pasxaning mahalliy aholisi arqon va xodalar yordamida mana shu holda ulkan haykallarni ko'tarib, joylariga o'rnatgan bo'lsalar kerak



LEMURLAR OROLI



Madagaskar – Janubiy yarimshardagi eng katta orol bo‘lib, Hind okeaning g‘arbida, Afrikaning janubiy-sharqida joylashgan. Olimlarning taxminicha, bu orolga birinchilardan bo‘lib Hind okeanini yelkanli qayiqlarda kesib o‘tgan hindixitoyliklar yetib kelishgan. Shuning uchun Madagaskarning tub aholisi – malagasiylar mongoloid irqiga mansub bo‘lib, ular haligacha ajdodlarining yerga ishlov berish va me‘morchilik an‘analarini davom ettirishadi, avvalgidek dengizga yelkanli qayiq – katamaranlarda chiqishadi. Yevropaliklardan orolga 1500-yilda portugallar birinchilardan bo‘lib kelishdi. Ulardan keyinroq orolga inglizlar va fransuzlar navbati bilan kelishib, uni o‘zlashtirishga kirishdilar.

Orolning boy o‘simliklar va jonzodlar dunyosi, ajoyib iqlimi ko‘pchilikni o‘ziga rom qilardi.

Madagaskar boy tabiati va hayvonlar dunyosiga ega. Orolida rang-barang orxideyalar, malochalar va

baobablar o‘sadi. Bu yerlargagina xos hasharotxo‘r **nepentes** o‘simligining barglari ko‘zachagulga o‘xshaydi.

Chuqur gulkosadagi sharbatga tushib qolgan xasharot qaytib chiqa olmaydi va gulning yemishiga aylanadi. Faqat Madagaskarda uchrovchi **ravenalla** («sayyohlar daraxti»)



Madagaskar
ravenallasi

Madagaskar kattaligi bo‘yicha yer yuzida to‘rtinchi o‘rinda (Grendlandiya, Yangi Gvineya, Borneodan keyin) turadi. Malagalarning o‘zi esa orollarini yerning kichkina materigi deya hisoblashadi.

10 metrgacha o'sadi, uning shoxlari uchidagi barglari xuddi yelpig'ichdek yoyilib o'sadi. Bu barglarda to'plangan suvlar butoqlaridan oqib, o'zagida yig'iladi va chanqaganlar bu suvdan chanqoqlarini qondiradilar. O'simlikning ikkinchi nomi ana shu jihatga ishoradir.



Madagaskar o'rmonlari – **lemurlar** saltanati hisoblanadi. Bu hayvonlar asosan kech tusha boshlaganida faollashgani uchun ularni «lemur» – «o'lganlar arvohi» deya atashgan. Lemurlarning mushukdek ulkanlari ham, sichqondek mittiginalari ham uchraydi. Lemurlar asosan daraxtlarda yashaydilar, faqat yirikroq lemurlargina yerda istiqomat qiladilar. Lemurlarning dushmani mushukka o'xshab ketadigan yirtqich – **fossalar** bo'lib, lemurlarni tutish uchun daraxtlarga ham chiqa olishadi.



Katta lemuri uzun va momiq yo'l-yo'l dumi bilan o'z jinsdoshlariga o'z kayfiyatiga xos xabarni berishi mumkin



YASHIL VA MUZLI YERLAR



Ikki shimoliy orol – Grenlandiya va Islandiyani vikinglar – qo‘qrmas dengizchi-skandinavlar kashf qilishgan. **Grenlandiya** (tarjimasi «yashil orol») – planetaning eng katta orolidir. Orolning katta qismi muz qobiq bilan qoplangan, uning bo‘laklari ajralib, dengizga tushib ketganidan so‘ng muz tog‘lar sifatida suzib ketadi va **aysberg** nomini oladi. Dengiz oqimlari ularni janub sari oqizib boradi va tumanli havoda ko‘zga ko‘rinmagan bu muztog‘lar yo‘lida uchragan kemalarga to‘qnashib ketishi mumkin. Mana shunday ulkan aysbergga to‘qnashib ketish oqibatida 1912-yilda «Titanik» kemasi halokatga uchraydi.

«Iglu» inuitlar tilida «uy» deganidir. Ilgarilari qor yoki muzdan yasalgan iglular mahalliy aholi uchun yashash joyi hisoblanardi, hozirga kelib ularni faqat turistlar ko‘rishi uchunгина yasashadi



Grenlandiyada katta shaharlar, o'rmonlar, daryolar yo'q, bu yer aholisi juda kamsonli. Orolning tub aholisi – eskimoslarni bu yerda **innuitlar** deb atashadi. «Eskimos» so'zini ular yoqtirishmaydi, bu so'z skandinav tillaridan birida «pakana» degan ma'noni beradi. Hozirgi innuitlar ota-bobolari kabi hamon ovchilik va baliq ovlash bilan shug'ullanishadi. Ilgarilari innuitlar kit ham ovlashgan, ammo hozir bu borada jiddiy taqiq mavjud.

Islandiya («muzli yer»)ni ko'pincha «olov sochuvchi yer» deb ham atashadi. Islandiyada so'ngan va harakatdagi vulqonlar ko'p. Ularning eng mashhuri – Gekla. Orol kashf qilinganidan beri Gekla yigirma martadan ko'proq harakatga kelib, yana so'nib qolgan. Yana Islandiya qaynoq buloqlar – geyzerlarga boy. Ulardan vaqt-vaqti bilan qaynoq suvlar va bug'lar yuqoriga otilib turadi.

Islandlar turmushidagi ko'plab holatlarni mo'jiza deb atash mumkin. Masalan, islandlarning parlamenti – **Alting** yer yuzidagi eng qadimgi bo'lib, unga 930-yilda asos solingan. **Island tili** esa eski norveg tiliga o'xshaydi, axir ular norveg-vikinglarning avlodi-da. Ming yil davomida Norvegiyada til ancha o'zgarishlarga uchradi, islandlarda esa – yo'q. Hozir islandlar eski norveg yozuvlarini oson o'qishadi, norveglarning o'zi esa juda qiynalishadi.



Nima uchun vikinglar muzdan iborat Grenlandiyani «yashil orol», yashillik bilan qoplangan Islandiyani «muzli yer» deya atashgan? Balki, o'sha paytlarda iqlim boshqacha bo'lganu, Grenlyandiya maysalar bilan, Islandiya esa qorlar bilan qoplangan bo'lsa kerak.

Islandiyadagi Strokkur geyzeri



KUNCHIQISH MAMLAKATI



*Toriyalar – qadimiy yapon
ibodatxonalariga olib
kiradigan darvozalardir*

Yaponiya – to‘rtta katta va son-sanoqsiz mayda orollarda joylashgan ajoyib Osiyo davlatidir. Ko‘p asrlar davomida yaponlar o‘z orollarida biqiq holda kun kechirdilar va o‘zlarining betakror madaniyatini yaratdilar. Yevroosiyoning eng sharqiy qismida joylashgan Yaponiyani ko‘pincha Kunchiqish mamlakati deb ham atashadi.

Mamlakatda 150 ga yaqin vulqonlar mavjud. Ularning orasida **Fudziyama** Yaponiyaning eng baland tog‘li nuqtasi bo‘lib, balandligi 3776 metrga teng. Fudziyama va Sakura Yaponiyaning timsoli hisoblanadi. XVII–XIX asrlarda

yashagan rassom K. Xokusay Fudziyama tasviri tushirilgan ko‘plab gravyuralar ishlagan va bu tog‘ning Yaponiyadan tashqarida ham mashhur bo‘lib



ketishiga hissa qo'shgan. Fudziyama Yaponiyaning eng katta oroli – Xonsyuda joylashgan.

Yaponlarning o'zi mamlakatlarini **Nippon** deb atashadi.

Yapon dini «sinto» – «xudolar yo'li» deb ataladi. Bir qator qadimgi yapon ibodatxonalari hamon saqlanib qolgan. Xonsyu orolida quyosh ilohasi Amaterasga bag'ishlangan Ise ibodatxonasi mavjud. Yaponlar Ise ibodatxonasida Amaterasning ruhi yashiringan ko'zgu saqlanadi deb ishonishadi.

Yaponiyada binolar va ibodatxonalar ikkiyoqlama o'tkir qiyalikka ega tomlar bilan yopiladi.

Uy devorlari juda yengil, ikki yoqqa (xuddi fanerali shirmalar kabi) suriladigan qilib tayyorlanadi.

Ba'zilarida romlar ham bo'lmay, moy shimdirilgan qog'ozlar yopishtirladi xolos. Bunday qog'ozlarni chiroyli rasmlar bilan ham bezashgan.

Yaponiyada ham toshlardan qal'alar qurila boshlaganidan keyin (XVI asrdan so'ng) ham bu binolarning tomi ikki yoqlamaligicha yopilishda davom etdi. Toshdan qurilganiga qaramay, bu inshootlar avvalgidek chiroyli, nozik va ko'kka intilgan holda qolaverdi.

Yapon jangchilari – samuraylar nafaqat usta jangchi ekanliklari, shu bilan birga qo'rqmas va nomus qonunlariga qat'iy amal qilishlari bilan ham dong taratishgan.


Ximedzi shahridagi ushbu Oq qarqara qal'asi XVI asrda bunyod etilgan. U asli mudofaa inshooti sifatida qurilgan bo'lishiga qaramay dunyo me'morchiligi durdonasiga aylandi



QUTB MO'JIZALARI



Yer kurrasi o'z o'qi atrofida aylanadi. Planetamizning ushbu o'q bilan kesishgan nuqtalari - Shimoliy va Janubiy qutblar deb ataladi. Kompas millari bu ikki nuqta tomonlarini ko'rsatadi. Qutblarda globuslardagi shartli chiziqlar - meridianlar birlashadi. Qutb hududlari Yer sayyorasining eng sovuq joylaridir.



QUTB YULDUZI OSTIDA

Shimoliy yarimsharning qutb hududi **Arktika** deb ataladi. Bu soʻz grekcha «arktos» – «ona ayiq» soʻzidan olingan boʻlib, shimoliy yarimshar tepasidagi yulduzlar burji Katta va Kichik ayiqlar yulduz turkumlaridir. Kichik ayiq burjidagi bitta yulduz shimoliy qutbning qoq ustida charaqlab turadi. Qadimgi dengizchilar va sayyohlar unga qarab yoʻllarini belgilab olishardi. Yulduzli osmon tun davomida aylanib, yulduzlarning joylari oʻzgarsa-da, **qutb yulduzi** – Oltin qoziqning joyi oʻzgarmasdi. Yerning Shimoliy Qutibi quruqlikda emas, suvlikda joylashgan. Umuman, Arktikaning katta qismini Shimoliy Amerika va Yevroosiyo qurshovidagi Shimoliy Muz okeani egallagan. Kurramizning eng



Qutb hududlari osmonida haqiqiy moʻjiza – atmosferaning chiroyli, rang-barang nurlanishini kuzatish mumkin. Bu hodisani shimol yogʻdusi deb atashadi





Shimoliy Arktikada Yer yuzida yashaydigan eng katta yirtqich – oq ayiq istiqomat qiladi. Qutbchilar ularni 88 parallelda, shimoliy qutb doirasida ham uchratishgan

shimoliy ushbu suvliklari qalin, sekin-asta ko'chib yuradigan muz qatlami bilan qoplangan.

Ko'plab jasur sayyohlar muz sahrolari panasida yashirinib olgan «yer cho'qqisi» – **Shimoliy qutbni** zabt etishga yo'l olishgan. Ulardan birinchi bo'lib amerikalik R. Piri 1909-yilda qutbni zabt etdi. 1926-yilda R. Amundsen va U. Nobile Shimoliy qutb



Bizning kunlarda Shimoliy qutb tepasida Kichik ayiq yulduzlar turkumining qutb yulduzi nur sochib turibdi. Ammo hamma vaqt bunday bo'lavermaydi. Yerning aylanish o'qi ming yillar davomida surilib boradi. 4,5 ming yillar avval Ajdar yulduz burjidagi Tuban yulduzi shimoliy qutb ustida bo'lgan. Yana 12 ming yildan so'ng Lira yulduz burjidagi Vega yulduzi Shimoliy qutb ustiga keladi. Oradan 26 ming yil o'tib esa Qutb yulduzi yana avvalgi joyiga qaytadi.



ustidan direjablda uchib o'tishdi. 1937-yilda Shimoliy qutb ustidan V. Chkalov samolyotda uchib o'tdi. 1962-yilda Shimoliy qutbda «Sovet komsomoli» suvosti kemasi suzib chiqdi. 1977-yilda «Arktika» sovet atomli muzyorari Shimoliy qutbga suzib bordi. 2007-yili Rossiyaning «Mir-1» va «Mir-2» chuqursuvosti apparatlari ekipajlari Shimoliy qutbda, okean ostiga 4 ming km chuqurlikka sho'ng'ib, tadqiqot ishlarini olib borishdi.



ENG JANUBIY MATERIK

Yerning janubiy qutbi quruqlikda joylashgan: sayyoramizning eng janubida **Antarktida** materigi joylashgan. Bu materikni rus dengizchilari F.F. Bellinsgauzen va M.P. Lazarev «Vostok» va «Mirniy» yelkanli kemalarida 1820-yilning 29-yanvarida kashf qilishgan. Antarktida dengiz sathidan o'rtacha 2 ming metr balandlikda joylashgan eng baland materikdir. To'g'ri, uning balandligi materikning ko'p qismini qoplab olgan muz qobig'i hisobiga ham to'g'ri kelishini aytib o'tish lozim.

XX asr boshlarida **Janubiy qutbni** zabt etish an'anasi katta qiziqish oldi. 1911-yilda unga qarab ikki ekspeditsiya yo'lga tushdi. Norvegiyaliklar R. Amundsen boshchiligida, inglizlar esa R. Skott boshchiligida bir paytning o'zida qit'aning boshqa-boshqa tomonidan yo'lga tushishdi. Skott ekspeditsiyasini boshidanoq omadsizliklar ta'qib qila boshladi va 1912-yilning yanvarida ko'zlagan manziliga yetib keldi. Ammo bu yerda uni Amundsen

Antarktidada harakatdagi Erebus vulqoni mavjud. Uning balandligi 3794 metr. Erebusning ikki krateridan bug' bulutlari, qizigan gazlar otilib chiqadi, vulqon atrofida qaynoq suvli favvoralar – geyzerlar mavjud.

Yerning Janubiy qutbi: bu yerga yetib kelish – har qanday sayohatchining orzusidir



lageridan qolgan izlar kutib turardi. Norvegiyaliklar janubiy qutbga birinchilardan bo'lib yetib kelishgan edi! Ingliz qutbchilarining ortga yo'llari fojiali yakunladi – ular sovuqda qotib qolishdi. Skott ekspeditsiyasi sharafiga tiklangan yodgorlikda ko'plab qutb tadqiqotchilarining chaqirig'iga aylangan so'zlar o'yib yozilgan: «Kurashish va izlanish, topish va yengilmaslik!»

Antarktidada doimiy yashovchi aholi yo'q – bu yerlar haddan tashqari sovuq. Materikda bir qancha qutb stansiyalari bunyod etilgan bo'lib, ularda turli mamlakatlarning olimlari tadqiqot ishlarini olib borishadi. Antarktida va uning atrofidagi orollar tirik hayotdan mosuvo deyish noto'g'ri: ushbu sovuq dengizlarda baliqlar va mayda planktonlarning boy zaxirasi mavjud. Bu yerlarda eng yirik sutemizuvchi hayvon – ko'k kitlar, turli-tuman tyulenlar yashashadi. Materikning sohilbo'yi hududlarida juda ko'p qushlar va pingvinlar galasi istiqomat qiladi. **Pingvinlar** ucha olmasalar ham, juda yaxshi suzadilar. Qo'ygan tuxumlari muzlamasligi uchun ota-pingvinlar ularni qorni ostidagi issiq xaltada, panjalari orasida asraydi.



Pingvinlarning qalin yog' qatlami va nam tortmaydigan mo'ynasi quruqlik va suvlikda sovuq qotmaslik uchun xizmat qiladi



O'ZBEKISTON VA O'ZBEK XALQI



Aziz o'quvchi, biz Siz bilan mazkur kitob orqali Yer sayyorasining deyarli barcha burchaklariga sayohat qildik. Dunyo mo'jizasi deya atalishga munosib bo'lgan barcha san'at asarlari, ulkan inshootlar, bundan tashqari, qadimgi tamaddunlar, tarixiy voqea-hodisalar, ma'lum va mashhur atamalarning kelib chiqish tarixi haqida ko'plab ma'lumotlar bilan tanishdik.

Mo'jiza, avvalo, bu sizni biz, bizni o'rab turgan tevarak, hayot beshigi deb atalmish tiriklikdir. Qolaversa, mo'jiza bu bizning jonajon vatanimiz – O'zbekiston va tinchliksevar xalqimiz. Demakki, dunyoni o'rganish eng avval o'z yurtimizni sevishdan, uning shonli tarixini o'rganishdan boshlanadi. Shunday ekan, keling, bizni hayrat va iftixorga to'ldiruvchi quyidagi ma'lumotlar Siz uchun!

«O‘ZBEK» ATAMASI

«O‘zbek» atamasi haqida hozircha «O‘zbekiston tarixi» fanida yakdil xulosa yo‘q. Ayrim mualliflar Dashti Qipchoqda ko‘chib yurgan turk-mo‘g‘il qabilalarining bir qismi o‘zlarini erkin tutganliklari sababli «o‘zbek», ya‘ni «o‘z-o‘ziga bek, xo‘jayin» deb atagan desalar, boshqalar «o‘zbek» etnonimini Oltin O‘rda xoni O‘zbekxon (XIV asr) nomi bilan bog‘laydilar. Boshqa yana bir guruh olimlar esa Oq O‘rdada (Dashti Qipchoqning sharqiy qismida) yashagan turk-mo‘g‘il qabilalariga «o‘zbeklar» degan nom berilgan, degan fikrni bildiradilar. «O‘zbek» atamasi o‘g‘iz qabilalari tarkibidagi «o‘z» urug‘i nomidan olingan, degan fikrlar ham mavjud.



Hozircha anig‘i shuki, Shayboniyxon boshchiligida Dashti Qipchoqdagi o‘zlariga «o‘zbek» degan nomni qabul qilgan qabilalar ikki daryo oralig‘idagi yerlarga ko‘chib kelgach, o‘zbek xalqi – xalq sifatida shakllandi, deyish tarixiy haqiqatga mutlaqo zid. To‘g‘rirog‘i, Shayboniyxon Movarounnahrni egallagach, Movarounnahrning qadimiy xalqi ham «o‘zbek» atamasini qabul qildilar. «O‘zbek» atamasi aholining umumiy nomiga aylandi.

Shuningdek, Janubiy Sibir, Oltoy, Yettisuv, Sharqiy Turkiston hamda Volga va Ural daryosi bo‘ylaridan turli davrlarda Movarounnahrqa kirib kelgan etnik guruhlar (*komponentlar*) ham o‘zbek xalqi etnogenezida ishtirok etadilar. Yuqorida nomlari keltirilgan etnoslar asosan turkiy va sharqiy eroniy tillarda so‘zlashganlar.

«O‘zbek»
atamasi – umumturk
qavmlarining
«o‘zbiy» va
«o‘zbek» atamalar
uyg‘unligida «qabila
begi», «hukmdor»
degan ma‘nolarni
bildiradi.



Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida yuqorida nomlari qayd etilgan qabila va elatlarning etnik jihatdan aralashuv jarayoni natijasida o'troq hayotga moslashgan turkiy hududiy maydon, ya'ni o'zbek xalqiga xos antropologik tip (*etnik qiyofa*) shakllanadi.

Tarix taqozosi bilan Sharq va G'arbdan turli qabilalarga mansub etnik guruhlar o'lkamizga kirib kelib, mahalliy tub aholi

bilan nasl jihatidan qo'shib-qorishib ketdi. Asrlar davomida yuz bergan bunday etnik jarayonlar natijasida o'z hududi, davlatchiligi, tili, iqtisodiy va ma'naviy-madaniy turmush tarziga ega bo'lgan o'zbek xalqi shakllandi.

Yozma manbalarning guvohlik berishicha,

O'zbeklar elat sifatida Osiyoning markaziy hududlari, jumladan Movarounnahr, Xorazm, Yettisuv, qisman Sharqiy Turkistonning g'arbiy mintaqalarida shakllangan. O'zbek xalqining asosini hozirgi O'zbekiston hududida qadimdan o'troq yashab, sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shug'ullanib kelgan mahalliy sug'diylar, baqtriyaliklar, xorazmiylar, farg'onaliklar, shoshliklar, yarim chorvador qang'lar, ko'chmanchi sak-massaget kabi etnik guruhlar tashkil etgan.

eramizdan avvalgi VII–VI asrlarda O'zbekiston hududida *sug'diylar*, *baqtriyaliklar*, *xorazmliklar*, *sak* va *massaget* elatlari yashaganlar. Zarafshon va Qashqadaryo vohasida dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi ko'plab aholi istiqomat qilgan. *Qadimgi Baqtriya* O'rta Osiyodagi qadimgi davlatlardan biri sanaladi. *Marg'iyona* va *Sug'diyona* Baqtriyaning siyosiy va madaniy ta'siri ostida bo'lgan. Shuning uchun qadimda bir-biriga qarindosh bo'lgan elatlarning kichik davlatlari – «davlatlar birlashmasi» deb atalgan.



QADIMGI YOZUVLAR VA ILK YOZMA MANBALAR

Xalqimiz va davlatchiligimizga oid ilk yozma manbalar – zardushtiylarning muqaddas kitobi «Avesto», Behistun yozuvlari va Qadimgi dunyo (*yunon-rim*) tarixchilarining asarlarida o'lkamizda yashagan qadimgi xalqlarning nomlari, alohida joylar, tog'lar, daryolar va ko'llarning, afsonaviy qahramonlar va podsholarning ismlari, yurtimiz xalqlarining turmushi, dini, madaniyati, iqtisodiy va siyosiy tuzumi to'g'risida ma'lumotlar beriladi. O'zbekistonda tillarning rivojlanishi bir necha ming yillar bilan bog'lanadi. Yozma manbalarga ko'ra yurtimizdagi eng qadimgi mahalliy tillar: *turkiy, fors, arab* va *eski o'zbek* tillari rivoj topgan. Ular ish yuritish va ma'muriy, adabiy va xalqaro, mahalliy qishloq va shahar tillari vazifasini bajargan.

O'rta Osiyo xalqlarining eng qadimiy yozma madaniyati tarixining yoshi 2300–2700 yillar atrofida. Eramizdan avvalgi birinchi mingyillik o'rtalari *oromiy yozuvi* keng tarqalgan edi. Ana shu yozuv zaminida keyinchalik *xorazm, baxtar, sug'd, parfiyon yozuvlari* shakllandi. O'rta Osiyoga makedoniyalik Aleksandr qo'shini bilan *yunon yozuvi* ham kirib keldi.

Qadimgi Xorazm yozuvi oromiy alifbosiga asoslangan. Keyinchalik oromiy va qadimgi yunon alifbosiga asoslangan baqtriya yozuvi rivojlangan. Milodiy I–IV asrlardan boshlab *sug'd yozuvlari* keng tarqalgan. Sak tilidagi eng qadimgi



O'rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi yozuvi – bu miloddan avvalgi V–IV asrlarga tegishli xumning sirtida tasvirlangan qadimgi xorazm tilidagi qisqa yozuvdir. U Oybuyirqal'a shahar xarobasidan topilgan. O'sha yerdan topilgan eramizdan avvalgi IV–III asrlarga oid yana bir yozuvda «asparak», yani «otliq», «chavandoz» so'zi bor.



manba Olmaota atrofidagi Issiq qo'rg'ondan topilgan kumush idishdagi yozuvdir. U eramizdan avvalgi V asrga tegishlidir.

Navbat yozma manbalarga. Ularda qadimdan O'zbekiston va uning atrofidagi hududlarda yashagan xalqlar haqida bitiklar bor...

- «Avesto»da qayd etilgan qadimgi xalqlarning dastlabki vatani – *Sirdaryo* va *Amudaryo* etaklari hamda Zarafshon vodiysi bo'lgan.

- *Behistun yozuvlari* – Erondagi Kirmonshoh shahri yaqinidagi Behistun qoyalarida joylashgan bo'lib, u fors shohi Doro I buyrug'iga ko'ra uch tilda: qadimgi fors, elam va babil tillarida yozilgan g'alaba yodgorligidir. Unda eramizdan avvalgi 523–522-yillarda ahamoniylar saltanatini larzaga keltirgan Gaumata, Frada, Skunxa boshliq xalq harakatlari hamda Doro I zabt etgan *Qadimgi Xorazm*, *Sug'diyona*, *Baqtriya* va *sak qabilalari* haqida yozilgan.

- Yunon tarixchisi Arrian Flaviyning (*mil. II asr*) «Iskandarning harbiy yurishlari» asarida makedoniyalik Aleksandrning *o'rta osiyo xalqlari* ustiga qilgan istilochilik yurishlari tarixi batafsil bayon qilingan.

- Eramizdan avvalgi V asrda qadimgi yunon tarixchisi Gerodot turli mamlakatlarga sayohat qilib, 9 ta kitobdan iborat «Tarix» asarini yozdi. Bu asarda Gerodot *O'rta Osiyoning qadimgi xalqlari*, ularning turmushi, urf-odatlari hamda qo'shni mamlakatlar haqida qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirgan.

- Eramizdan avvalgi II asr oxiri–I asr boshlarida qadimgi Xitoy tarixchisi Sim Szyangning «Tarixiy yilnomalar» nomli asarida *O'zbekistonning qadimgi aholisi va davlatlari* to'g'risida ma'lumotlar bor.

- Yunon tarixchisi va geografi Strabon (*eramizdan avvalgi I asr oxirlari*) «Geografiya» nomli asarida ko'plab mamlakatlar, jumladan Osiyo xalqlari madaniyati va tarixiy voqealari haqida ma'lumotlar keltiradi.

- Rim tarixchisi Kvint Kursiy Ruf o'zining «Buyuk Aleksandr tarixi» nomli asarida (*mil. I asr*) makedoniyalik Aleksandrning *O'rta Osiyoga* harbiy yurishlari haqidagi ma'lumotlarni yozib qoldirgan.

TARIXIY-MADANIY YODGORLIKLAR

Ilk paleolit davri madaniy yodgorliklari Toshkent viloyatidan 1963-yilida topilgan *Ko'lbuloq* va Farg'ona vodiysidan 1985-yilda topilgan Selung'ur manzilgohlaridir. O'zbekistondagi eng qadimgi mehnat qurollari – bir tomoni o'tkirlashtirilgan qo'pol daryo tosh qurollari aynan shu yerlardan topilgan. Bunday usulda yasalgan tosh qurollarni olimlar «chopperlar» deb atashadi.

Ko'lbuloq madaniy yodgorligi MDH miqyosida eng qadimgi madaniy yodgorlik hisoblansa, Selung'ur madaniy yodgorligi ibtidoiy odamning suyak qoldiqlari topilishi bilan mashhur.

Qisqa qilib aytganda, *O'zbekiston hududida yashagan qadimgi xalqlarning* tarixi Selung'ur g'orida paydo bo'lgan arxantropalardan boshlanadi. Bu narsa O'rta Osiyo xalqlarining ajdodlari ilk bor Farg'ona vodiysida paydo bo'lgan, degan taxminga asos bo'ladi.

O'zbekistonda qadimgi dehqonchilik manzilgohlari *Zarafshon, Surxondaryo va Xorazm* hududlaridan topib o'rganilgan. So'nggi paleolit davri odami manzilgohlari O'zbekistonda Samarqand shahri hududidan, Toshkent viloyati Ohangaron daryosi bo'yidagi *Ko'lbuloq* manzilgohining yuqori madaniy qatlamlaridan, shuningdek, Farg'ona vodiysidan topilgan. Bugungi kunda mezolit davriga oid yuzdan ziyod manzilgohlar ochilgan. Farg'ona vodiysining tog'oldi va tog'li tumanlarida, Toshkent vohasida hamda O'zbekiston janubida bunday manzilgohlar ko'plab uchraydi. *Obishir, Qo'shilish va Machay* manzilgohlari, shuningdek, *Zarautsoy*



Tariximizning tamal toshlari – ilk bor ajdodlarimiz tomonidan Selung'ur g'orida qo'yilgan. Uning yoshi 1 mln. 200 ming yil bilan belgilanadi.



darasidagi qoyatosh rasmlari ancha mufassal o'rganilgan. Keling, ularning ayrimlari bilan tanishamiz:

- **Zamonbobo** – Buxoro viloyati Qorako'l tumanidagi Zamonbobo ko'li bo'ylarida eramizdan avvalgi ikkinchi mingyillikda yashagan chorvadorlar va dehqonlarning qadimiy manzilgohidir.

- **Sopollitepa** – Surxondaryo viloyati, Sherobod shahri yaqinidan arxeologlar tomonidan topilgan qadimgi ziroatchilar manzilgohlaridan birining nomi. Ushbu manzilgoh eramizdan avvalgi ikkinchi mingyillikka oid bo'lib, bu yerdan paxsa imorat, sopol buyumlar, bronzadan yasalgan mehnat qurollari va zeb-ziynatlar yasaladigan ustaxona qoldiqlari, shuningdek, yirik-yirik xumlarda saqlangan bug'doy va arpa donlari topilgan.

- **Jarqo'ton** – bundan 3.5 ming yil muqaddam Surxon vohasidagi hozirgi Sheroboddan uncha uzoq bo'lmagan joyda vujudga kelgan manzilgoh. Jarqo'ton manzilgohida shaharning ilk alomatlari ko'zga tashlanadi. Ushbu qo'rg'on ikki qismga ajratilgan edi: qasr (*hukmdor qarorgohi*) hamda jamoa a'zolari, hunarmandlar va savdogarlarning arkni qurshab turgan uylari. Qasr ichida ibodatxona bo'lgan.

- **Zarautsoy** – 1912-yilda arxeolog I. Fyodorov tomonidan Surxondaryoning Zarautsoy nomli joyida qadimgi qoyatosh suratlari topilgan manzilgoh. U yerdagi hozirda dunyoga mashhur rasmlar tosh davriga mansub. Qoyatosh suratlarida yovvoyi ho'kiz va ov manzarasi tasvirlangan.

- **Soymolitosh** – Farg'ona vodiysidagi topilgan yana bir manzilgohning nomi. Soymolitosh manzilgohida ham O'zbekiston hududida yashagan ibtidoiy odamlarning sodda tasviriy san'at namunalari mavjud. Ushbu qoyatosh suratlari ajdodlarimizning atrof-muhitni bilish yoki dunyoni anglashga intilishi yuqori bo'lganidan dalolat beradi. Ular bunday suratlarni bo'lajak ovga yordam berishiga ishonganliklari sababli chizishgan, degan taxminlar ham mavjud.



O'ZBEKISTON HUDUDIDA DAVLATCHILIK

Jonajon mamlakatimiz hududida shahar-davlatlar hamda markaziy boshqaruv tizimi va unga bo'ysungan hududlarga ega ko'plab davlatlar bo'lganligini tarix darsliklaridan yaxshi bilamiz. Qadimgi qabilalarning davlatchilik boshqaruv shakliga o'tishida yangi-yangi ixtirolarning kashf etilishi muhim rol o'ynagan. Masalan, bronza davrida ajdodlarimiz *kulolchilik, charxi va g'ildirakni* kashf etganlar. Shu tariqa sodda harakatlantirish vositalari ham vujudga kelgan.

Shaharlarda hunarmandchilik, savdo-sotiq taraqqiy etgan. Qadimgi Sharq mamlakatlari bilan madaniy aloqalar o'rnatilgan. Qadimgi davrda O'zbekiston hududida davlatchilik taraqqiyoti –

Eramizdan avvalgi IX–VIII asrlarda O'zbekiston hududida ilk temir asriga o'tish boshlangan. Eramizdan avvalgi VII–VI asrlarda bu yerda qadimgi yirik davlatlar mavjud bo'lgan.





mahalliy aholining yuqori darajada rivojlangan ziroatchiligiga (*dehqonchiligiga*) asoslangan edi.

Eramizdan avvalgi VII–VI asrlarda Surxondaryo, Qashqadaryo, Zarafshon vohalari va O‘zbekistonga chegaradosh viloyatlar *Baqtriya davlati* ta’siri ostida bo‘lgan. Hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi natijasida eramizdan avvalgi VII–VI asrlarda qadimgi shaharlar rivojlangan. Ular mustahkam mudofaa devorlari bilan o‘ralgan bo‘lib, hunarmandchilik va savdo markazlari edi.

Qiziltepa, Uzunqir, Yerqo‘rg‘on va Afrosiyob o‘rnida Baqtriya va Sug‘dning markaziy shaharlari joylashgan. Bu shaharlar O‘zbekiston hududida eng qadimgilari bo‘lib, ularning yoshi 2700 yildan kam emas. Qadimshunoslar Afrosiyob (Samarqand), Yerqo‘rg‘on va Uzunqir (Qashqadaryo vohasi), Ko‘zaliqir (Xorazm), Qiziltepa (Surxondaryo) kabi qadimiy shaharlarni o‘rganishgan.

O'ZBEKISTON HUDUDIDAGI QADIMGI DAVLATLAR

Afrosiyob – hozirgi Samarqandning sharqiy chegarasi hududlarida eramizdan avvalgi VIII–VII asrlarda asos solingan qadimgi shahar.



Uning maydoni 219 gektar bo'lib, unga sug'diylar asos solganlar. Dastlab sug'diylar «Smarakansa», ya'ni sug'dchasiga «anjumanlar o'tkaziladigan joy», so'ngra yunonlar «Marokanda», xitoyliklar «Kan» deb atashgan. XI asrdan boshlab «Samarqand» deb atalgan.

Qadimgi Xorazm – Amudaryoning quyi oqimi, Qoraqalpog'iston, Xorazm va Toshovuz viloyatlarini o'z ichiga olib, «Avesto»da bu davlat «Xvarizam», Behistun yozuvlarida «Xvarazmish», Arrian va Strabon asarlarida «Xorasmiya», qadimgi sug'd yozuvlarida «quyoshli o'lka» tarzida uchraydi. Eramizdan avvalgi IV asrda Qadimgi Xorazm ahamoniylar imperiyasidan mustaqil davlatga aylandi. Makedoniyalik Aleksandr va Salavkiylar

1220-yilda mo'g'ul xoni Chingizxon Samarqandni vayron qiladi. 1370-yili Amir Temur mazkur shaharni shimoli-sharq qismida qayta bunyod etadi. XVII asrdan boshlab sharq mualliflarining asarlarida qadimgi shahar harobalari «Afrosiyob» yoki «Ko'hna qal'a» deb atala boshlagan.





Eramizdan avvalgi I asrda va dastlabki milodiy asrlarda Xorazmda kumush va mis tangalar zarb qilingan. Milodiy I asrda Xorazmda ishlab chiqilgan mahalliy taqvimdan xorazmliklar VII asrga qadar foydalanishgan.



hukmronligi davrida ham Qadimgi Xorazm davlati mustaqil edi.

Qadimgi Baqtriya – qadimda Marg'iyona va Sug'diyona uning tarkibiga kirgan bo'lib, u hozirgi Surxondaryo viloyati, Janubiy Tojikiston, Shimoliy Afg'oniston hududlarini o'z ichiga olgan. Yozma manbalarda «*Baxdi*» («*Avesto*» kitobida), «*Baqtrish*» (*Behistun yozuvlarida*), «*Baqtriana*» (*yunon-rimliklarning asarlarida*) shaklida uchraydi. Bundan tashqari, ushbu qadimgi davlat «*Avesto*»da «*baland bayroqli o'lka*», yunon-rim asarlarida «*ming shahar mamlakati*» sifatida ham tilga olinadi.

Sug'diyona – Qadimgi Baqtriya tarkibida bo'lib, u hozirgi Qashqadaryo va Zarafshon vohalarini o'z ichiga olgan. Yozma manbalarda mazkur o'lka «*So'g'da*» («*Avesto*» kitobida), «*Sug'uda*» (*Behistun yozuvlarida*), yunon-rimliklar (*Arrian, Strabon, Kursiy Ruf*) qalamiga mansub asarlarda esa «*So'g'diyona*» shaklida tilga olingan.



Saklar, yuqorida ta'kidlanganidek, O'rta Osiyoning tog'li hududlari, dashtlari va cho'llarida yashagan ko'chmanchi chorvador qabilalardir. Bundan tashqari, cho'llar va Amudaryo bo'ylarida ko'chmanchi massaget qabilalari ham yashaganlar.

Sak va massagetlar – boshqa xalq va elatlarga nisbatan ko'p sonli bo'lgan ko'chmanchi chorvador xalqlardir. Ko'chmanchi sak va massaget elatlarining asosiy mashg'uloti chorvachilik bo'lib, ularning tuya,

ot va qo'y-echkildan iborat katta-katta suruvlari bo'lgan. Ma'lum nomdagi davlatchilikka ega bo'lmagan bo'lsalarda o'z yerlarini boshqa qabilalar hujumidan himoya qilish uchun saklar eramizdan avvalgi VI asrda «harbiy qabila ittifoqi»ga birlashadilar.

Farg'ona – mahalliy hokimligi Farg'ona vodiysida joylashgan bo'lib, poytaxti Koson va Axsikat shaharlari bo'lgan. Farg'ona hukmdorlari «ixshid» deb atalgan. Farg'ona dehqonchilik (*ziroatchilar ko'pincha paxta va sholi ekishgan*), chorvachilik, hunarmandchilik xo'jaliklari va ichki-tashqi savdo rivoj topgan mustahkam iqtisodiy poydevorli o'lka edi. Qo'shni mamlakatlarga bo'yoq, rangli shisha buyumlar va dori-darmonlar chiqarilgan. *Qurama va Qoramozor tog'lari* yonbag'irlarida qadimdan yilqichilik bilan shug'ullanilgan. Bu yerda ko'paytirilgan tulpor otlarning dong'i jahonga taralgan. Aholisining aksariyati budda diniga sig'inishgan.



Farg'ona davlatining Sho'rabashat, Uchqo'rg'on singari shaharlari atrofidagi aholisi yerni ishlash, sholi va bug'doy yetishtirish, bog'dorchilik va uzum yetishtirishda katta yutuqlarga erishgan. Olimlarning aniqlashicha, milodiy II asrda Farg'ona davlati barham topgan.





Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumanidagi Qang'ha shahar xarobasi saklarning o'sha kezlardagi «Qang'dez» nomli poytaxti bo'lgan, unga arxeologlar «Qovunchi madaniyati» nomini berishgan.

Choch va Iloq – Chirchiq va Ohangaron vodiylarida joylashgan edi. Chochning poytaxti *Chochkat* shahri, Iloqning poytaxti *Tunkat* edi. Chochning hukmdori «tudun», Eloqnikisi esa «dehqon» deb yuritilgan. Eloq oltin va kumushlarni kovlab olishda O'rta Sharqda ma'lum va mashhur bo'lgan. Choch tudunlari old tomoniga mulkdorning surati, orqasiga gajak dumli bars yoki qoplon tasviri, ba'zan sulolaviy ayri tamg'a tushirilgan chaqa-tangalar zarb etganlar. Ayrim tanga pullar orasida podshoh bilan yonma-yon turgan malika tasviri tushirilgan pullar uchraydi. Bunday qo'shaloq tasvir, shubhasiz, qadimgi turkiylar davlatchiligida hukmdorning malikasi – «xvatun» («xotun») vazirlik darajasiga ega bo'lib, davlat boshqaruvida faol ishtirok etganligidan dalolat beradi. Saroyda u xoqondan keyingi o'rinni egallagan.

Qadimgi Qang' – hozirgi Toshkent vohasi, Chimkent viloyati va Sirdaryo bo'yi hududlarini egallagan qadimgi davlatlar birlashmasi. Eramizdan avvalgi III asrda unga saklar asos solishgan. Xitoy manbalaridan u «Qang'yuy», Xitoy tarixchilari esa uni «Bityan» deb atashgan.



Eramizdan avvalgi II asr oxirida Qang' qabilalarning hukmdorlari tanga zarb ettiradi. Buyuk Ipak yo'lining shimoliy tarmog'i orqali xitoylik savdogarlar bilan uzviy aloqada bo'lishgan. Milodiy III asrga kelib Qang' davlati parchalanib ketgan.

Toxariston – Hozirgi Janubiy O'zbekiston va Tojikiston, Shimoliy Afg'onistonni o'z ichiga olgan bu tarixiy viloyat shimolda Hisor tog'lari, janubda Hindikush, g'arbda Murg'ob va Xerirud vodiysi, sharqda Pomir bilan chegaralangan.



Toxariston nomi eramizdan avvalgi II asrda Yunon-Baqtriya davlatini qulatgan chorvador qabila – *yuechjilar* nomidan olingan.

Toxariston – Hindiston, Yaqin va Uzoq Sharq mamlakatlari bilan savdo-madaniy aloqalar o'rnatgan.

O'z chaqa-tangalari orqali ichki-tashqi savdo muomalasini yurgizishgan.

Toxariston Markaziy Osiyoda *budda va moniylik* dinlarining tarqalishi va rivojida muhim rol o'ynagan.



Dovon – taxminan eramizdan avvalgi III asrdan to

mil. II asrgacha mavjud

bo'lgan davlat. Xitoy

manbalarida bu o'lka

«Dovon», boshqa

manbalarda esa «Parkana»

deb atalgan. Aholisi 70 dan

ortiq shaharlarda istiqomat

qilishgan. Masalan, Dovonda

bo'lgan xitoylik sayyoh Chjan

Syan bunday deb yozadi: «...Dovon diyorida 70 tacha katta-kichik shaharlar bor; ...aholisining soni bir necha yuz mingga yetadi. O'q-yoy va nayzalar bilan qurollanishgan. Xalqi ot choptirib o'q otishga mohir».

Boshqa bir xitoy solnomasida: «An'si (Qadimgi Eron) shaharlari Dovondagiga o'xshashdir», deb yozilgan.



Xitoy tarixchilarining guvohlik berishicha, Dovon davlati hududlari hozirgi Toshkent vohasigacha cho'zilgan.

Aziz o'quvchi! Biz o'z tarixini bilgan xalq kelajakka ishonch bilan nazar tashlashiga ishonamiz. Vatanimiz va dunyo tarixini, eng avval, maktab darsliklaridan, so'ngra turli qiziqarli hamda tarixiy ma'lumotlar mujassam bo'lgan mazkur turkum kitoblaridan o'rganing. Bularning orasida yurtimizda faoliyat yuritayotgan muzeylarga tashrif buyurishni ham unutmang! Imkoni bo'lganda dunyoga mashhur boshqa muzeylar bilan ham yaqindan tanishing! Faqat shundan keyingina tarixiy filmlar, xoh u hujjatli, xoh badiiy bo'lsin, sizga tushunarli va qiziqarli bo'ladi. Unutmang, Dunyoni bilish, O'zlikni his etish, Vatanni sevish – milliy iftixorning dastlabki belgilaridan.

Adabiy-ommabop nashr

*«Mening ilk ensiklopediyam»
nomli turkum kitoblari*

DUNYO MO'JIZALARI

(1-kitob)

«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati
Toshkent – 2020

Muharrirlar: *Ulug' BEK, Vafo FAYZULLOH*
Badiiy muharrirlar: *Shahzoda SULTONOVA*
Texnik muharrir: *Nurzoid SULTONOV*
Musahhih: *Sevinch AHMEDOVA*

**Nashr lisenziyasi: AI № 286, 2016-yil 04-noyabr
sanasida berilgan.**

Original maket «SHARQ-ZIYO ZAKOVAT»
nashriyot-matbaa uyi tahririyatida tayyorlandi.
Bichimi: 60x84 ¹/₈. «Cambria» garniturasini.
Shartli bosma tabog'i 8,00. Nashriyot-hisob tabog'i 8,27.
Bosishga ruxsat etildi 07.01.2020.
Adadi: 5000 nusxa. 670-sonli buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

**«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik
kompaniyasi bosmaxonasi,
100000, Toshkent shahri, «Buyuk Turon» ko'chasi, 41**